

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi  
Andijon davlat universiteti

FILOLOGIYA FAKULTETI  
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI

IV bosqich "B" guruh talabasi

S.Abdulahatovaning

**Tog'ay Murod asarlari lingvopoetikasi**

mavzusidagi

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

f.f.d.,prof.Sh.H.Shahobiddinova

ANDIJON - 2012

## MUNDARIJA

|                                                                                                         |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Ishning umumiy tavsifi                                                                                  | 4  |
| KIRISH. Poetika tilshunoslikning o'rganish ob'ekti sifatida                                             | 6  |
| 1-bob. Tilning turli sath birliklari badiiy asar tili va adib uslubini shakllantiruvchi vosita sifatida | 8  |
| 1.1. Fonetik vositalar                                                                                  | 9  |
| 1.2. Leksik vositalar                                                                                   | 15 |
| 2-bob. Badiiy tasvir vositalarining lingvistik asoslari                                                 |    |
| 2.1. Ifodaviy-tasviriy vositalar                                                                        | 27 |
| 2.2.1. Tog'ay Murod asarlari nutqida metaforaning o'rni                                                 | 28 |
| 2.2.2. Ramzning uslubiy xususiyatlari                                                                   | 33 |
| 2.2.3. Kinoyadan foydalanish mahorati                                                                   | 34 |
| 2.3. Sintaktik figuralarning lingvistik xususiyatlari                                                   | 35 |
| 3-bob. Dialektizm turlarining poetik tasvirdagi o'rni                                                   | 37 |
| 3.1. Fonetik dialektizmlar                                                                              | 38 |
| 3.2. Morfologik dialektizmlar                                                                           | 40 |
| 3.3. Leksik dialektizmlar                                                                               | 47 |
| UMUMIY XULOSALAR                                                                                        | 48 |
| ADABIYOTLAR                                                                                             | 53 |

## ISHNING UMUMIY TAVSIFI

**Mavzuning dolzarbligi.** Mualliflarning til imkoniyatlaridan foydalanish masalasi yoki qissa va romanlarning lisoniy jihati deyarli yoritilmagan, aytish mumkinki, nasriy asarlarning bu jihatiga endi-endi e'tibor qaratilmoqda.

Ilgariroq badiiy asar poetikasiga nisbatan lisoniy yondashuvga harakat H.H.Niyoziy, Cho'lpon, A.Qodiriy, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor, Said Ahmad kabi adiblar ijodiga nisbatan kuatiladi.

Istiqlol davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, Y.Solijonov, Q.Yo'ldoshev, Z.Pardaevalarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq va tahlil etilmoqda. Bu ishlarda ham asosiy e'tibor asarning badiiy tasvir jihatlariga qaratilgan bo'lib, badiiy asar tilining lisoniy xususiyatlari kam o'rganilgan. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirilganiga qaramay, ko'rsatilgan davrdagi ayrim yetuk ijodkorlar asarlarining lisoniy jihatlariga deyarli o'rganilmaganligi ishning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Badiiy asar nutqi poetik xususiyatlarini o'zbek badiiy-adabiy tili materiallari, lisoniy dalillar asosida tahlil qilish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

Tog'ay Murod asarlari uslubini o'rganish asosida istiqlol davri adabiyotida real voqelikni in'ikos ettirishda adib mahoratining lisoniy omillarini o'rganish;

- badiiy asar nutqi va adib uslubini shakllantirishdagi leksik, fonetik, grammatik vositalar, ko'chimlar va boshqalarning lisoniy omillari, voqelashuvi va individual nutqni shakllantirishdagi o'rnini atroflicha tahlil qilish.

**Tadqiqotning metodologik asosi.** Tadqiqotning metodologik asosi bo'lib, dialektikaning umumiylik-xususiylik, shakl-mazmun kategoriyalari xizmat qiladi. Ana shu asosda zidlanuvchi til-nutq dioxotomiyasida badiiy tasvir vositalari mavqeini aniqlashda til va uslub masalasi yuzasidan ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslikdagi nazariy asoslar va ilmiy tahlil usullariga tayaniladi.

Asosan, lingvopoetik, uslubiy va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

**Tadqiqot manbai.** Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi", "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yurgan odamlar", "Momo yer qo'shigi" qissalari, "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanlari tadqiqotning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

- XX asr oxirida yuzaga kelgan ijtimoiy voqelik natijasi sifatida shakllangan o'ziga xos nutq egasi bo'lgan Tog'ay Murod nutqi badiiy lisoniy nuqtai nazardan tahlil etildi;

- uslub, uslubiyat, poetika tushunchalari aniqlashtirildi;
- uslub turlari va chegaralari belgilandi;
- individual uslub xususiyatlari ochib berildi;
- turli xil lisoniy vositalar - okkazionalizmlar, gapni murakkablashtiruvchi vositalar, muayyan fonetik hamda leksik vositalarning Tog'ay Murod nutqidagi stilistik imkoniyatlarini boshqa adiblar nutqi bilan qiyoslab kuzatish orqali ularning badiiy uslub o'ziga xosligini ta'minlashdagi o'rni yorqinlashtirildi;
- metafora, ramz, kinoya kabilar zamonaviy tushunchalar asosida ta'riflandi, tasniflandi;

**Tadqiqotning tarkibi.** BMI ishning umumiy tavsifi, kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.


KIRISH.

POETIKA TILSHUNOSLIKNING O'RGANISH OB'JEKTI

Bugungi kitobxon oldida o'z didi va tushunchasiga mos asarlarni tanlab o'qish imkoniyati kengaydi. Ifoda tarzidagi xilma-xil adabiy yunalishlar va usullar yuksak darajali adabiyot yaratish yulidagi intilishlar ekanligini nazarda tutgan holda yozuvchining o'ziga xos uslubi va uni yaratishdagi lingvistik omillar masalasi xususida fikr yuritishga jazm etdik.

Badiiy adabiyot tilini o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko'pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan biror til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir. "Milliy adabiy tilning tarakkiyoti uchun badiiy adabiyot tili eng asosiy manbalardan biri bo'lib, u tilning boyligini va umumxalq tilining badiiy ifoda vositalarini ko'rstishga xizmat qiladi"<sup>1</sup>.

Badiiy asar tili xakida so'z borar ekan, dastavval, tilning bevosita bir-biriga aloqador uch tomonini qayd etish zarur bo'ladi:



Bu tushunchalar bir-birini tuldirib, ayni paytda bir-biridan ozuka olib yashaydi. Nazariy manbalarda ularning quyidagi xususiyatlari qayd etiladi:

- 1) adabiy til grammatik me'yorlarga buysundirilgan, kat'iy talaffo'z normalariga ega bo'lgan, jonli xalq tilidagi har xilliklarni bir xillikka olib kelgan tildir;
- 2) jonli so'zlashuv tili yoqi umumxalq tilida grammatika va orfoepiya qoidalariga doim ham amal qilinavermaydi, emosional leksika va frazeologiya, sheva elementlari, kasb-xunar leksikasi, jargonlar va boshqalardan keng foydalaniladi;
- 3) badiiy til esa jonli so'zlashuv tiliga asoslangan, adabiy til bilan chambarchas boglangan, hammaga tushunarli bo'lgan, "so'z ustalari tomonidan pardozlangan, saykal berilgan poetik tildir"<sup>2</sup>.

Ishning maqsadidan kelib chiqib, faqat badiiy til, ya'ni badiiy asar tili doirasida fikr yuritamiz. "Chunonchi, yozuvchi hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlab, obraz yaratar ekan, u

---

<sup>1</sup> Баскаков Н.А. ва бошқалар. Умумий тилшунослик. Т., Ўқитувчи, 1979. Б.163.

<sup>2</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т., Ўзбекистон, 2002. Б. 159.

so'zlashuv tili boyliklaridan, jonli tildagi sheva va kasb-xunarga oid til birliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi"<sup>1</sup>.

Demak, badiiy asar tilida keng qamrovli til birliklari - fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni ko'zatish mumkin. Shu bilan birga ijodqorning so'z boyligidan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik ko'rilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

1. Jahon adabiyotshunosligi va tilshunosligining ilg'or tamoyillariga asoslangan holda o'zbek filologiyasida ham badiiy adabiyot tili va yozuvchi uslubini o'rganish hamda tahlil qilish umumfilologik fan sohasi sifatida o'zining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirib bormoqda.

2. So'nggi davr yozuvchilari nasriy asarlari xususidagi ilmiy tadqiqotlar harakteri, asosan, adabiy tahlil doirasida ekanligi va bu jihatdan badiiy asar tilini lingvopoetik nuqtai nazardan o'rganishga ehtiyoj ortganligi masalaning dolzarbligini belgilaydi.

3. O'zbek filologiyasidagi badiiy adabiyot tili muammolari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ichida "ma'lum bir ijodqorning tildan foydalanish mahoratiga doir ishlar"ni alohida guruh sifatida ajratish maqsadga muvofiq.

4. "Lingvopoetika" atamasi badiiy asar tilini o'rganishda nisbatan keng qamrovli tushunchani o'z ichiga olib, asarning badiiyligini ta'minlovchi unsurlarni tilning barcha sathlari doirasida o'rganadi. Shuning uchun mavzuni yoritishda lingvopoetik tahlil asos qilib olindi. Shu o'rinda "poetika" tushunchasiga ham oydinlik kiritilib, uning ikkinchi, tor ma'nodagi "poetika" atamasiga quyidagi ta'rif tavsiya etildi: "Badiiy asar tuzilishi, uning turli qismlari orasidagi munosabat, badiiy nutq stilistikasi, ya'ni badiiy nutq va uning harakteri, turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati masalalarini kamrab oluvchi ob'ektga nisbatan poetika atamasi qo'llanadi. "Poetika" atamasiga sinonim sifatida "badiiyat" so'zini ham qo'llash mumkin".

5. Shu kunga qadar o'zbek filologiyasida uslubiyat va uslubshunoslik, uslub tushunchalari o'zining aniq va lo'nda ta'rif-tavsifiga ega emas. Bu masalaga turlicha yondashuvlar va ayrim chalkashliklar davom etib kelmoqda. Ba'zi o'rinlarda "uslub", "usul" va "metod" tushunchalari aralashtirib yuboriladi.

Bu masalaga ham imkon darajasida oydinlik kiritildi. Muayyan janrga xos xususiy belgilarni uslub tushunchasi, janrlararo umumiy belgilarni metod tushunchasi ifodalaydi. Demak, "umumiylik"ka xos bo'lgan tushunchalar metod doirasida, "xususiylik"ka xos bo'lgan tushunchalar uslub doirasida tekshiriladi. Usul esa, muayyan ijodqorning individual uslubi doirasida tanlagan tasvir yulidir.

6. Ijodkorning individual uslubini o'rganish murakkab jarayon bo'lib, u ham adabiy, ham lingvistik tahlil imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi va shu tarzda shoir yoqi yozuvchi ijodiy tafakko'ri o'ziga xos jihatlarining qay tarzda yuzaga chiqishini tekshiradi.

## 1-BOB. TILNING TURLI SATH BIRLIKLARI BADIY ASAR TILI VA ADIB USLUBINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Badiiy nutq obrazli va emosional-ekspressiv ifodalilikka ega ekan, bunda tilning kommunikativ funksiyasi bilan emosional-ekspressivlik funksiyasi qo'shilib ketadi. Shunday ekan, badiiy asarni idroq qilish til ko'rilishini anglash orqali amalga oshiriladi.

"Badiiy nutq stili avtorlarga asarning estetik ta'sirini ko'chaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi".

Yozuvchilarning til vositalaridan foydalanishdagi individual ijodiy mahorati turlichadir. Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishda, ko'pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodqorning okkazional so'z va ibora yaratish mahorati kabi masalalar o'rganiladi<sup>1</sup> -yu, ularning fonetik va grammatik xususiyatlari e'tibordan chetda qoldiriladi. Lekin Tog'ay Murod asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha satxlari uchun ham boy poetik material bera olishi ko'zatiladi.

### 1.1. Fonetik vositalar.

Tilning material tomoni tovushlar bo'lganligi uchun tildagi so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari vositasida shakllanadi va yuzaga chiqadi.

Nutqdagi fonetik vositalar ham ba'zi urinlarda uslub yaratuvchi vositaga aylanishi mumkin. Odatda, badiiy adabiyotda ko'proq liriq asarlarda tovushlar, o'rgu va oxang xissiy ta'sirchanlikni

---

<sup>1</sup> Алиев А.Ю. Абдулла Қодирий «Обид кетмон» қиссасининг баъзи тил хусусиятлари. Ўзбек тилшунослигининг актуал масалалари. Т., 1985; Ўзбек адабий тили тарихидан материаллар. Т., 1986; Йўлдошев М. Чўлпон бадий тил маҳорати. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. Т., 2000; Нормуродов Р.У. Шукур Холмирозев асарларининг тил хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. Т., 2000.

o'shishda muhim stilistik vosita bo'ladi. Lekin ba'zan nasriy asarlarda ham fonetik vositalar uslubiy buyoqdorlikni yuzaga chiqarishi mumkin.

"Nutq tovushlaridagi emosionallik, ta'sirchanlik, talaffo'zdagi jarangdorlik, eshitishdagi yoqimlilik, ularning badiiy qo'llanish qoidalari, estetik roli fonetik stilistikaning o'rganish ob'ektidir"<sup>1</sup>.

Rus tilshunosligida L.V.Shcherba, R.I.Avanesov, M.V.Panov, L.R.Zinder va boshqalarning asarlarida fonostilistikaga oid masalalar atroflicha o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida esa bu masala deyarli yoritilmagan.

Fonetik uslubiy vositalar ogzaki nutqda tularoq yuzaga chiqadi, yozma nutqda esa uning ayrim xususiyatlarinigina ifodalash mumkin, holos. Lekin shunday bo'lsa-da, Tog'ay Murod asarlarida fonetik vositalarning uslubiy vazifa bajarib, matnning xissiy ta'sirchanligini oshirishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Avvalo, Tog'ay Murod kissa va romanlaridagi oxang harakteri xakida fikr yuritish kerak bo'ladi. Boisi, yozuvchi asarlarida nasriy bayon she'riyat bilan yaqinlashdiki, "Ot kishnagan oqshom", "Oydinda yo'rgan odamlar" kissalari hamda "Otamdan qolgan dalalar" romanida ritm, oxangdorlik eng muhim omillardan biri bo'lib qoldi. Adibning o'ziga xos ifoda usuli, individual bayon tarzi ham aynan ana shu oxangdorlikda ko'rinadi. Shu sababli bu xususiyat aloxida tadqiqot manbai bo'la oldi<sup>2</sup>.

Xalq ogzaki ijodiga xos ko'p ma'nolilik, xalq qo'shiqlariga yaqin oxangdorlikni adib o'z asarlariga shunday ustalik bilan singdirib yuborganki, natijada adabiy til bilan xalq ogzaki ijodi va jonli xalq tilining mu'tadil qorishiq holdagi, faqat Tog'ay Murodgagina xos bo'lgan jozibali ifoda yusini paydo bo'lgan. Yozuvchi she'riy asarlarga xos bo'lgan texnik vositalar - ritm, vazn, turoq kabilardan keng foydalanadi. "Xatto she'r ritmi, arxitektonikasiga putur yetkazmaslik uchun Tog'ay Murod Dehqonqul nutqida kelishiq, shaxs-son va egalik qo'shimchalarini ham tashlab ketaveradi"<sup>3</sup>.

M: "Bobomiz xovlisi Fargonada bo'ladi. Dalasi Fargona adogida bo'ladi.

Bobomiz dalasi oldidan bir ariq suv oqadi.

Suv gavhar zilol-gavhar zilol suv bo'ladi.

Suv egilmish tollar majnun-majnun sollanadi".

(VI, 1, 5-bet)

---

<sup>1</sup> Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1985. Б. 88.

<sup>2</sup> Тўлаганова У. Тоғай Мурод насрида ритм. Филол. Фанлари номзоди... дисс. Т., 2005.

<sup>3</sup> Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол. фанлари доктори дисс. Т., 2002.

Matnda poeziyadagi kabi har bir gapni aloxida katorga yozish orqali ham oxangni ifodalash maqsad qilib olingan, ya'ni har bir kator pao'za bilan uqilsa, asarning musikiyligi, ta'sirchanligi ortadi.

Tovushlarni cho'zib talaffo'z qilish orqali ma'no ko'chayishi, ta'kid, ajablanish, xayajon, kinoya kabi turli ma'no nozikliklari ifodalanishi mumkin. So'zlovchi tovushlar vositasida muayyan bir ma'no buyoqdorligini ifodalamoqchi bo'lsa, tinglovchi ham ma'noni tovushlar vositasida qabul qiladi. Shuning uchun so'z tarkibidagi biror tovushning cho'zilishi, almashtirilishi, tushirib qoldirilishi kabi hodisalar ma'noga ta'sir qilishi mumkin.

M: " -Ena, no-on...

It tobora yakin bo'la bordi.

Ona extiyot uchun ... it taraf qo'ltigi - ung qo'ltigidan tugunni oldi. Avaylabgina chap qo'ltigiga kistirdi. Kungli xiyol orom oldi. Dadil odimladi. Bolasi ich-etini tirnab zorlandi:

- Ena, no-o-on, no-o-on.

Ona itdan ellik-oltmish kadam beridan utdi. Batamom bemalol utdi. Boisi, it... bogloqlik bo'ldi". (VI, 3, 10-bet)

Bola birinchi marta murojaat qilganda "non" tarzida talaffo'z qiladi, onasi e'tibor beravermagach, "no-on" deb suraydi. Ochlikka chidolmay qolgach, "ich-etini tirnab zorlandi:

- Ena, no-o-on, no-o-on".

Muallif vaziyatning yanada keskinlashuvi, bolaning holatidagi tanglikning tobora ko'chayib borayotganini "non" so'zidagi unlining cho'zilishi bilan ifodalaydi. Bu esa ifodaning ta'sirchanligini ko'chaytirib, voqelikni yanada anikroq tasavvur qilishga yordam beradi.

So'z tarkibidagi biror tovushning talaffo'zda o'zgarishi fonetik hodisa bo'lganligi uchun uni aynan tabiiy holda ifodalab bo'lmaydi, shuning uchun yozuvda buni ifodalashda "o" harfini 2-3 marta yozish orqali ko'rstishga harakat qilingan. "o" unlisining dastlab bitta, keyin ikkita, oxirida esa uchta yozilishi (ya'ni unlining cho'zilib talaffo'z qilinishi) ta'sirchanlikni ko'chaytirgan, munosabat, ichki xayajon, bolaning ruxiy isyoni, yalinchoqligi ham ifodalangan.

Demak, so'zdagi unli tovushlarni cho'zib talaffo'z qilish orqali ma'noni ko'chaytirish, ta'kid, ajablanish, xayajon, olkish, yalinish, erkalash kabi konnotativ ma'nolarni ifodalash, tinglovchiga yoqi o'quvchiga nisbatan ta'sirchanlikni orttirish mumkin.

Badiiy adabiyotda undosh tovushlarning cho'zib talaffo'z qilinishidan uslubiy vosita sifatida foydalanish holatlari ham ko'zatiladi. Bunda ham xis-tuyguning ortikligi, ko'chaytirish, ta'kidlash, suroq, taajjub kabi ma'nolar ifodalanadi.

M: "-Mening xotinim bo'lib, aroq ochishni bilmaysanmi? - dedi mingboshi, xoholab qo'ldi. - O'rgan! Mana qarab tur! - Shishaning tagiga yugon shapalogi bilan ikki marta urdi, pukak

chachrab chiqib shiftga tegdi, sungra u yerdan sachrab tovchadagi katta jomga kelib tushdi, "jar-r-rang!"... etdi jom.

- Xa-xa-xa!.. - dedi mingboshi. - Jomlaringni jaranglatdim, sintaloq!"  
(Chulpon, "Kecha va kundo'z")

Pukakning jomga kelib urilishidan paydo bo'lgan tovushni muallif juda chiroyli va urinli ifodalaydi, "r" tovushining ikkilantirilishi esa holatni yanada yorqin tasavvur qilishga, "kurkinch kuyov" bilan Zebi orasidagi nomo'tanosiblikni ifodalovchi ko'chli emosional - ekspressiv vosita sifatida tasvirning real, jonli chiqishiga yordam beradi.

"Otamdan qolgan dalalar" romanida undosh tovushni ikkilantirish orqali "kinoya", "piching", "kesatik" ma'nolari yuzaga chiqariladi.

M: " Rejissyor tagin yelkam qoqdi.

- Barra kalla, barra kalla! - dedi.

Rejissyor yelkam qoqa-qoqa meni mashina taraf junatdi.

Men yul-yulakay raisimizdan suradim:

-Rais bova, rejissyor nima deyapti?

-Barakalla deyapti, barakalla.

-Barakallani shunday deydimi?

-Xa, endi... ular VGIK da o'qigan-da, VGIK da.

-O'shanda shunday o'qitadimi?

-Xa, endi...VGIKni bitirgan-da, VGIKni". (VI, 1, 206-b.)

Bunda yozuvchi o'zi tasvirlayotgan davr ruxini anik ko'rstib berish, rus tilida so'zlab, rus tilida fikrlab, o'z ona tilisini yaxshi bilmaydigan, o'zligini unutgan ayrim chalasavod kimsalarni fosh qilish uchun fonetik vositadan foydalanadi. "R" undoshini ikkilantirish orqali yangi paronim juftlik xosil qilingan: barakalla - barra kalla. Bu urinda muallif pozitsiyasi yuzaga burtib chiqib, "barakalla" so'zi Dehqonqulga qaratilgani holda so'zdagi piching, kinoya rejissyorning o'ziga, uning "barra kalla"siga ishora qilinadi.

"Barra" so'zi aslida fors-tojikcha "ko'zichoq" ma'nosini bildirib, hozirgi zamon o'zbek tilida "yosh", "mayin", "begubor" ma'nolarida ham ishlatiladi (barra ut, barra piyoz) <sup>1</sup>.

Lekin yozuvchi, bizningcha, aynan "yosh" - "pishib yetilmagan" ma'nosiga ishora qilib, yosh, safsataboz, "VGIKda o'qigan" rejissyorning xomkallasiga nisbatan piching qiladi. Uning o'z ona tilisini, urf-odatlarini yaxshi bilmasligi, bilsa ham ataylab bo'zib talaffo'z qilishi ustidan achchiq qo'ladi. Matnda yuzaga chiqarilayotgan pragmatik ma'no "jujaxuroz" iborasini esga soladi.

---

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I жилд, Москва, Рус тили. 1981. Б. 83.

"... aloxida til boskichi bo'lgan lingvostilistika o'zining anik birliklariga ega bo'lmay, til birliklariga u yoqi bu ekspressiv ma'no berish bilan chegaralanadi... Odatda, tildagi biror stilistik xususiyat leksik yoqi grammatik jihatdan tula namoyon bo'lmasa, uni fonetik jihatdan shakllantirish natijasida tuldirladi"<sup>1</sup>.

Yozuvchi boshqa bir urinda unli va undosh tovushlarning cho'zib talaffo'z qilinishidan boshqacha maqsadda foydalanadi. Dehqonqulning maktabdosh urtogi Ziyod davr kurboni bo'ladi. U dori sepilgan dalada uxlab qoladi. Bunga esa o'sha davrdagi ijtimoiy muxit, kichik maktab bolalaridan ham ishchi ko'chi sifatida foydalanishlari sabab bo'ladi. Maktab direktori ham, atrofdagilar ham bu fojeaga e'tiborsiz qaraydilar, oddiy holatdek qabul qiladilar. Yosh Dehqonqul esa qattiq iztirobga to'shadi, ichki xissiyot bilan kechirib bo'lmas fojea yuz berganini anglab, yurak-bagri eziladi. Ziyodning onasi kelganda uni xurlik va ilojsizlik kayfiyati bilan ko'zatadi, onaning holatiga achinadi.

M: "Ziyodni onasi betini bilaklariga bosadi.

Ziyodni onasi iz-z-iz-z yiglaydi. Ziyodni onasi yum-m-yum-m yiglaydi.

Men Ziyodni onasiga qo'shilib yiglayman...

Ziyodni onasi paxtazor qarab-paxtazor qarab chakiradi:

- Ziyod-u-u-u !

Men Ziyodni onasi qo'lidan tortib-tortib yiglab qo'yaberman.

Yuring ketamiz, momo! - deyman. - Yuring ketamiz, hozir samolyot keladi!

Ziyodni onasi gapimni qorlamaydi. Entikib-entikib chakiradi:

- Ziyod-u-u-u !

Ziyodni onasi upkasi tulib-tulib chakiradi:

- Ziyod-u-u-u !" (VI, 1, 72-73 bet)

Badiiy asarlarda personaj nutqida fonetik o'zgachalikni uslubiy vosita sifatida qo'llash asar kaxramonining emosional holatiga badiiy buyoq berish, tasvirning ta'sirchanligini oshirishda asar badiiyligini ta'minlovchi fonostilistik asoslardan biri hisoblanadi. Nutqda bir tovushni ikkinchisi bilan almashtirish ham uslubiy vazifa bajaradi. So'zdagi tovushlarni tugri talaffo'z qila olmaslik, biri o'rnida ikkinchisini qo'llash, ko'pincha, bolalar nutqiga xos. Yozuvchilar bolalar nutqi uchun harakterli bu xususiyatni o'z asarlarida berish orqali tasvirning real, jozibali chiqishiga, ular nutqini individuallashtirishga erishadilar. A.Kaxxor o'zining "Bemor"

---

<sup>1</sup> Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси, Т., 1990. Б. 16.

xikoyasida onasidan juda yosh yetim qolayotgan bola nutqida r va y tovushlarini almashtirib ishlatadi va nutq ta'sirchanligini oshiradi: Xudoyo, ayamdi daydiga da'vo beygin... <sup>1</sup>

Bolalar nutqiga xos bo'lgan r-y tovush almashishi hodisasidan Tog'ay Murod boshqa bir maqsadda foydalanadi.

M: " - Otingiz nimaydi, polvon? - dedi.

- Shukuy !

- E, yashang, Shukur polvon ! Bolalar, manovi Shukur polvon bilan olishadigan mard bo'lsa urtaga chiqsin !

Telpagi qo'loqlarini tushirib olmish bir bola chiqib keldi.

Ketidan otasi ovoz berdi:

Polvon bova, manovi Ermat polvonni bir sinab ko'ring !

Buri polvon Ermatning-da qo'lidan ushladi.

- Ermat polvon, - dedi, siz manovi Shukuy... e, astagfirullo, Shukur polvon bilan olishasizmi? O'zi yurak uryaptimi? E, bali, gap bunday bupti-da!" (VI, 2, 13 - bet)

Birinchi holatda, A.Kaxxorda bolaning so'zlari ota-bolaning noiloj axvoliga achinish, chukur iztirob xissini uygotsa, ikkinchi

holatda, Tog'ay Murodda kitobxonda yengil qo'lg'u uygotish, qolaversa, xali ravon gapirishni o'rganmagan bolakaylarni kurash tushish uchun davraga chorlab, ularda milliy urf-odatlarimizga mexr-muxabbat uygotishdek ajoyib udumga o'quvchi e'tiborini qaratish ko'zda tutilgan. Davraboshi bolalar bilan muloqotga kirishib, beixtiyor bola tilidan "Shukur" ismini uning o'zi aytganday "Shukuy" deb talaffo'z qiladi, shu tariqa pragmatik funksiya bajaruvchi birlik sifatida erkalash ma'nosi yuzaga burtib chiqadi, so'zning ekspressiv-emosionalligi yanada ortadi, holatni anikroq tasavvur qilishga yordam beradi.

## 1.2. Leksik vositalar.

**OKKAZIONAL SO'ZLAR.** Tog'ay Murod asarlarida so'z yasallishining o'ziga xos xususiyatlari yakqol ko'zga tashlanadi.

Fikrni obrazli ifodalash maqsadida yozuvchi va shoirlar mavjud til imkoniyatlaridan foydalangan holda o'zlari ham yangi so'zlar yasaydilar. Bunday holat Chulpon, G.Gulom, A.Kaxxor kabi o'z yuli va uslubiga ega bo'lgan ijodqorlar asarlarida ko'zatiladi. Shu tariqa

---

<sup>1</sup> Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1985. Б. 91.

okkazionalizmlar vujudga keladi. Okkazionalizmlar - muayyan til modeli asosida yasalgan, faqat shu kontekstning o'zida qo'llangan, individual-stilistik neologizmlardir<sup>1</sup>.

O'zbek tilshunosligida okkazionalizmlar va ular bilan bog'liq muammolarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, lingvopoetikaga doir tadqiqotlarda<sup>2</sup> okkazional so'z va iboralarning qo'llanishiga doir muloxazalar bayon qilingan bo'lsa, Toshaliyeva<sup>3</sup> okkazionalizmlarni umumiy tavsifda tadqiq etgan.

So'z qo'llashdagi individuallik ijodqor uslubining o'ziga xosligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Okkazional so'zlar, asosan, yasovchi affiksalar hamda so'zlarni qo'shish orqali morfologik va sintaktik usulda xosil bo'ladi. Shuningdek, semantik usul bilan va so'z ma'nolarining ko'chishi natijasida ham okkazional so'zlar vujudga keladi<sup>4</sup>.

Tog'ay Murod ijodida okkazional so'z yasashning barcha usullari qo'llangan. So'z yasashining eng qo'lay va keng tarkalgan usullaridan biri affiksasiya usulidir. O'zbek tilida so'z yasovchi affiksalar anchagina mikdorni tashkil etadi. Adib ijodida ot so'z turkumiga oid -chi, -xur, -zor, -iston affikslari, -xona affiksoidi, shuningdek, ravish turkumiga oid -ona affiksi asosida yasalgan original okkazionalizmlar uchraydiki, bo'lar matnning jozibadorligi, badiiy buyoqdorligi, xissiy ta'sirchanligini oshirishda muhim uslubiy vosita vazifasini o'tagan.

-chi affiksi eng faol ot yasovchi bo'lib, barcha so'z turkumlaridan (boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlardan ham) ot yasashga xizmat qiladi.<sup>5</sup> Bu affiks, asosan, turli ma'nolardagi shaxs oti yasaydi. Shulardan biri shaxsning so'z yasash asosi anglatgan narsa bilan shug'ullanishini ifodalovchi otlardir: temirchi, suvchi, tunukachi kabi. Tog'ay Murod affiksning ana shu xususiyati asosida "anorchi", "bayroqchi", "tosh bitikchi", "uvol-savobchi" kabi yangi so'zlar yasaydiki, bo'lar kontekstdagi ma'noni ta'sirchan, obrazli ifodalash imkonini bergan.

M: "Bayroqchi aji-buji dorilar bilan bo'lganmish janda chopon beradi". (VI, 1, 63-bet)

"Ammo anorchi bildi - miyigida qo'ldi". (VI, 1, 196-bet)

"Otamdan qolgan dalalar" romanida voqelik bosh kaxramon sodda, tupori, mexnatkash Dehqonqul tilidan bayon qilinadi. Dehqonqulning sodda tasavvuriga kura bayroq tarkatuvchi "bayroqchi", anor yetishtiruvchi "anorchi" bo'lishi oddiy bir holdir.

---

<sup>1</sup> Ҳоҗиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Т. Ўқитувчи, 1985. Б. 63.

<sup>2</sup> Миртожиев М. Окказионал маъноҒҒЎзбек тилшунослиги масалалари. ТошДУ асарлари. Т., 1973; Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. Т., Фан, 1990; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби. Филол. фанлари доктори дисс. Т., 1993; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Т., 1981.

<sup>3</sup> Тошалиева С. Ўзбек тилида окказионал сўз ясашиши. Филол. фанлари номзоди... дисс. Т., 1998.

<sup>4</sup> Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. Т., Фан, 1990. Б. 54.

<sup>5</sup> Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., Ўзбекистон, 1992. Б. 207.

-chi asli sifat yasovchi bo'lib, hozir ot leksemaga qo'shilganida ot yasovchi deb qaraladi.

<sup>1</sup> Yozuvchi -chi affiksining shu xususiyati asosida ham okkazional so'zlar yasaydi.

M: "Yulda xabarchi ushladi". (VI, 2, 377-bet)

"Ertachi ekinlar yaxshi bo'ladi, noz-ne'matlar-da yaxshi bo'ladi." (VI, 2, 265-bet)

Birinchi misolda "xabarchi" so'zi "xabar beruvchi kishi" ma'nosida, ikkinchi misoldagi "ertachi" so'zi esa "ertaki ekinlar" ma'nosida qo'llangan. Bu holat birinchidan, sheva elementi sifatida ko'rilsa, ikkinchidan, yozuvchining jonli so'zlashuv tilini mukammal bilishi, til imkoniyatlaridan ma'lum bir maqsadlarda urinli foydalana olishidan dalolat beradi.

-xo'r affiksi (tojikcha xurdan - "emoq" fe'lidan), yasash asosidan anglashilgan narsalarni, ayniksa, yegulik va ichimlik narsalarni ko'p va tez-tez iste'mol qiluvchi shaxs oti yasaydi: choy-xur, gusht-xur, palov-xur, non-xur, kimiz-xur kabi. <sup>2</sup>

Tog'ay Murod -xur affiksini yangi ma'nolarda qo'llab, asosdan anglashilgan narsaga uchlik, extiyojlilik ma'nosidagi "azotxur", "suyunchixur" kabi so'zlarni yasaydi.

M: "Go'zalarim azotxur bo'ldi". (VI, 1, 146-bet)

"Ostonasidan suyunchixur arimadi". (VI, 2, 356-bet)

-xur affiksi shaxs oti yasaydi, chunki "emoq", "suyub tanovul qilmoq" ma'nolari asosan shaxsga, jonivorlarga nisbatan qo'llanadi. Tog'ay Murod esa uni jonsiz narsaga - go'zaga nisbatan qo'llab, ma'noni ko'chaytirishga, jonlantirishning o'ziga xos ko'rinishini yuzaga chiqarishga erishgan.

Keyingi misoldagi "suyunchixur" so'zi ham o'ziga xos uslubiy vazifa bajargan. "Suyunchi" (sevinchi) xushxabar uchun beriladigan sovga. <sup>3</sup> Bu sovga eyiladigan yoqi ichiladigan bo'lmasligi ham mumkin, lekin u suyub qabul qilinadigan narsa. Demak, bu urinda "suyub qabul qilish", "extiyojni kondirish" semalari yuzaga burtib chiqadi. "Suyunchixur"lar Xumor momoning soddaligidan, kungilchanligidan, yolgiz ugli uchun xech narsani ayamasligidan foydalanib, uning uyidan "arimay qoldi", chunki Xumor momoning yolgiz, erka ugli askarlikdan kaytadigan bo'ldi. "Xushxabar olib keluvchilar biroviga tun yopdi, biroviga belbog uradi, biroviga duppi kiygizdi" (VI, 2, 356 - bet), shuning uchun ham "suyunchixur arimadi".

Yozuvchining so'z qo'llashdagi mahorati xakida gap borar ekan, bu urinda matnning umumiy saviyasidan kelib chiqib fikr yuritish kerak. Yolgiz uglining 3 yillik askarlikdan

---

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси. I том, Т., Фан, 1975. Б. 256.

<sup>2</sup> Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., Ўзбекистон, 1992. Б. 209.

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II жилд, Москва, Рус тили, 1981. Б. 32.

kelishini intizorlik bilan intik bo'lib ko'tayotgan Xumor momo suyunchixurlarga bor-budini kozigidagi ayamay sochdi, oxirgi suyunchixo'rga, ya'ni Mardon juvozkashga esa sunggi kisir molini ham atab yubordi. Shu tarzda "Momo yer qo'shigi" kissasida o'zbekning, ayniksa, qishloq odamlarining mard, tantiligi, qo'li ochiqligi Tog'ay Murodga xos ifoda yusini bilan yana bir bor chiroyli ifodalangan. Ana shunday o'ziga xos milliylik, maxalliy qoloritni burttirib tasvirlashda, obrazlilikni yanada ko'chaytirishda birgina "suyunchixur" so'zi kompozision markaz vazifasini o'tagan.

-iston affiksi xalq (millat) nomini bildiruvchi yoqi boshqa biror so'zga qo'shilib, shu xalq (millat) yashaydigan mamlakat yoqi yasovchi asos anglatgan narsa ko'p bo'lgan joy ma'nosidagi ot yasaydi: O'zbekiston, Guliston kabi. <sup>1</sup>

Tog'ay Murod bu affiksning ham yangi ma'no kirralarini kashf etib, "jamoliston", "baraniston" kabi so'zlarni qo'llaydi.

M: "Chanishev tog xushro'yidan xo'zurlanadi.

- Bay-bay-bay! - deydi. - Ana jamol, mana jamol! Biz endi bu jamolistonni O'zbakiya deb ataymiz, O'zbakiya!" (VI, 1, 37-bet)

Mustamlakachi rus zobiti tomonidan Turkiston juda go'zal yurt ekanligining tan olinishi va uni "jamoliston" deb atashi o'quvchiga gayritabiyydek tuyuladi. Xuddi ana shu gayritabiyylik kitobxonni o'ziga jalb etadi va yozuvchining goyaviy maqsadini yuzaga chiqaradi. Bizningcha, bu urinda nutqiy vaziyatga kura yashirin xususiy ma'no komponenti mavjud bo'lib <sup>2</sup>, rus zobitining o'z mamlakati qo'lga utgan ulkaga nisbatan ekspressiv munosabati aks etgan.

-zor affiksi yasash asosi anglatgan narsa usadigan joy ma'nosidagi ot yasaydi: paxtazor, gulzor kabi. Tog'ay Murod uni sifat asosga nisbatan qo'llab, okkazional so'z yasaydi: qorongizor.

M: "Xonadon... motamxona bo'ldi. Zim-ziyo qorongizor bo'ldi".

(VI, 3, 38-bet)

Ertaga dafn etilishi kerak bo'lgan marxum yotgan joy tom ma'noda qorongizor bo'lishi ishonarli hol. Bu so'z kontekstda keng qo'lamli ma'no kasb etadi. Nafaqat tevarak-atrof qorongi (kechaning qorongiligi), balki otalaridan ayrilgan xonadon soxiblarining dili ham kecha qorongiligiga hamoxang zulmatda. Botir firkaning marxumga janoza uqilmasligi xakidagi xabaridan sung farzandlarning kungli yanada qorongilashadi. Shu tariqa yozuvchi ko'p urinlarda nasriy bayon orqali ham liriq holatlarni tasvirlash usulidan keng foydalanadi. Adibning o'ziga

---

<sup>1</sup> Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., Ўзбекистон, 1992. Б. 209.

<sup>2</sup> Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фанлари доктори... дисс... автореф. Т., 2000. Б. 36.

xos uslubini yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri ham uning poetik unsurlarni nasrda bemalol qo'llay olishidadir.

-ona affiksi fors-tojik tilidan kirib kelgan bo'lib, harakatning belgisini biror voqea-hodisaga uxshatish, takkoslash ma'nosidagi ravish yasaydi: mardona, kaxramonona, olimona kabi. Tog'ay Murod kinoyaviy uxshatish, taklid ma'nosidagi "raisona", "raykomona", "kampirona", "amaldorona" kabi yangi so'zlarni yasaydiki, ular yozuvchining badiiy niyatini o'ziga xos tarzda ifodalashga, holatni yorqin tasavvur qilishga, personaj ruxiyatini burttirib tasvirlashga xizmat qilgan.

M: "Men tevarakka kami bilan raisona-raisona, ko'pi bilan raykomona-raykomona qaradim". (VI, 1, 129-bet)

Nega aynan raisona yoqi raykomona? Umri mexnat bilan utgan, nari borsa Toshkentni ko'rgan soddadil Dehqonqul uchun rais bilan raykomdan ustun odam yuk bu dunyoda. Amaldorlarni har narsaga kudir odamlar deb uylaydi. Ich-ichidan ularga xavas qiladi, ularning oldida o'zini yer bilan teng deb biladi. Bunga u bir kadar kunikib ham qolgan. Lekin botiniy bir tuygu kalbining tub-tubida isyon ko'taradi. O'zini ulardan kam emasdek xis qilishga chorlaydi o'sha isyon.

M: "Ayolimiz derazadan ko'rinmish oynaijaxonga ishora berdi.

- Bu kishi-da anavi odamlarday bup, bundaygina shlyapa kiyib yursa bo'lmaydimi, - dedi.
- Kaysi, oynaijaxondagilarmi? Endi, ular katta odamlar. Biz xali u darajaga yetganimiz yuk.
- Nimasi katta, ular-da shu kishiday odam.
- Yuk, sen bilmaysan, ular katta odam. Katta odam bo'lmasa, oynaijaxonga chiqarmidi.
- Katta bo'lgan bilan ularni motosikli yuk, bu kishiniki bor.
- Bu gaping chin! Lekin kuy, odam uyaladi, shlyapa kiysam, birov-yarim, rais kelyapti, deb uylaydi.
- Amirboyni ayoli bu kishi motosikl olayotganini eshitib, motosikl olgandan kura, kallasiga bir nima olib kiysa bo'lardi, kallasidagi telpagi tipratikonni uligiga uxshaydi, debdi". (VI, 1, 124-125-bet)

Hamqishloq ayolning ana shu gapi Dehqonqulning jon-jonidan utib ketadi, o'sha ichida gimirlab yotgan isyonni alanga oldiradi. "Ertaga tong otsin, shlyapa kiyganim bo'lsin" degan karorga keladi Dehqonqul. Shu tariqa shlyapa uning o'qinchiga malham bo'ladi, o'zini baxtiyor xis qiladi, "tevarakka kami bilan raisona-raisona, ko'pi bilan raykomona-raykomona" qaraydi. Yozuvchi so'zni chertib-chertib tanlar ekan, ayni holatni o'ziga xos, takrorlanmas yusinda ifodalaydi.

O'zbek adabiy tilining lugat tarkibini yangi so'zlar bilan boyitishda kalkalash ham muhim urin to'tadi. To'liq kalkada boshqa tildagi lugaviy birlik anglatgan ma'no o'zlashtiriladi,

o'sha ma'noni anglatuvchi lugaviy birlikning morfematik to'zilishidan nusxa olib, o'zlashtiruvchi til materiali asosida leksema to'ziladi.

Yarim kalkada esa morfemalarning bir qismi o'sha til materiali bilan, bir qismi o'zlashtiruvchi til materiali bilan ifodalanadi. Xaqiqiy kalkada qismlar sun'iy ravishda birlashadi.

1

XX asr boshlarida ko'plab so'zlar rus tilidan o'zlashtirila boshladi. Chulpon, Fitrat, Bexbudiy kabi vatanparvar ijodqorlar tilimizni bu tulkindan saklab qolish uchun rus tilida mavjud bo'lgan so'zlarga mukobil shakl xosil qilish extiyoji bilan ma'ro'zachi (doqladchiq), ijarachi (arendator), liboschi (kostyumer)<sup>2</sup> kabi juda ko'p yangi so'zlar yaratdilar. Lekin ularning ayrimlari iste'molga kirdi, ayrimlari okkazionalizm sifatida qolib ketdi.

Utgan asrning 80-yillariga kelib, istiklol shabadasi esa boshlagach, tilning sofliги uchun yana kurash boshlandi. Tog'ay Murod ham o'z asarlarida rus tilidan o'zlashgan so'zlarning o'zbekcha mukobilidan foydalanishga harakat qildi.

M: "Qolxozimizda lolab kuygich xotin-kizni o'zi yuk-da?" (VI, 1, 211-bet)

"Xavoyutgich moslama egatlab to'kilmish paxtalarimni yutib-yutib oladi". (VI, 1, 217-bet)

"Qoragilof eshiqdan ichkariladim". (VI, 1, 224-bet)

"Shoirlar oyoqlibos qoqdi". (VI, 1, 163-bet)

"Ilk vositasi Orol baxriqamoli bo'ldi". (VI, 2, 406-bet)

"Tangriqut Pyotr Birinchi butun Osiyoni Urusiya vassali etib olmoqchi bo'ldi". (VI, 1, 236-bet)

"Traktor ketiga turt kutilik urugsepgich takdim". (VI, 1, 81-bet)

Ushbu jumalarda lolab (lab buyogi), xavoyutgich (vakuum), qoragilof (dermatin koplangan), oyoqlibos (tufli, botinka), baxriqamol (dengiz), tangriqut (imperator) kabi so'zlar qo'llangan. Fikrimizcha, ularni qo'llashda, bir xil muvaffakiyatga erishilgan deb bo'lmaydi. Masalan, tufli, botinka so'zlarining aynan o'zbekcha mukobili bo'lmagani uchun yozuvchining uni "oyoqlibos" deb tarjima qilishi uslubiy vosita sifatida o'zini oqlaydi. Lekin doimiy leksik birlik sifatida galiz hisoblanadi. O'zbekcha dengiz so'zining arabcha "baxriqamol" tarzida qo'llanishi adabiy til nuqtai nazaridan me'yoriy holat hisoblanmaydi, biroq uslubiy jihatdan me'yoriy holat sifatida qabul qilinadi. "Imperator" o'rnida "tangriqut" so'zining qo'llanishi ham mafkuraviy nuqtai nazardan o'zini to'liq oqlamaydi. Lekin badiiy matnda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishda vosita bo'la olishi mumkin.

---

<sup>1</sup> Ўзбек тили грамматикаси. I жилд, Т., Фан, 1975. Б. 248.

<sup>2</sup> Неъматова Д. Чўлпон публицистикасининг лингвистик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореферати, Т., 2004. Б. 12.

Bundan ko'rinadiki, kalkalash usuli bilan yaratilgan so'zlar yoqi umuman okkazonalizmlar ko'pchilik tomonidan tan olinsa, tilning tarakkiyot konunlariga mos holda to'zilgan bo'lsa va tilda ma'lum ma'noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shundagina individual nutq neologizmi umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qoladi.<sup>1</sup>

Biroq, bundan kat'iy nazar, muayyan kontekst doirasida katta ta'sir va tasvir ko'chiga ega bo'lgan individual okkazonalizmlar muayyan uslubiy maqsadda qo'llaniladi. Yana shuni ham ta'kidlab utish kerakki, ona tilidagi so'zning ma'nosi uning morfologik tarkibidan anik anglashilib turadi. Shuning uchun ona tilidagi so'zlar ba'zan umumiste'moldagi so'zlar bo'lmasa ham, shu til egalariga tushunarli bo'ladi<sup>2</sup>. Shuning uchun ham Tog'ay Murod rus tilidan o'zlashgan so'zlar o'rniga imkon darajasida o'zbekcha so'zlardan foydalanishga harakat qilgan. Masalan, umumiste'molda bo'lgan "seyalka" so'zi o'rnida "urugsepgich" so'zini ishlatishi, bizningcha, maqsadga muvofiqdir. Yuqorda aytib utilganidek, uning morfologik tarkibidan ma'nosi yakqol anglashilib turadi.

ANTROPONIMLAR. Badiiy matndagi personajlarni nomlashning turli asoslari mavjud. Ular avtobiografiq, tarixiy-madaniy, majoziy va hoqazo bo'lishi mumkin, lekin deyarli har doim muallif personaj nomiga o'ziga xos ma'no yuklashga harakat qilishi tabiiydir. Muallif tomonidan quyilgan nomlarning asosiy vazifasi xakida so'z borar ekan, lingvistik tahlil orqali ismlarning semantik va ramziy ma'nolarini o'rganish talab etiladi. Antroponimlarni qo'llash usulini ijodqorning badiiy tili, mahorati hamda o'zbek tilining uslubiy xususiyatlari bilan boglab o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ismlarning kommunikativ vazifasi atash, nominasiyadir. Ammo badiiy asar tilida esa ismlar ekspressiv vazifalarni ham bajarib keladi. Tog'ay Murod ham o'z asarlaridagi antroponimlarga ma'lum ma'nodagi vazifa yuklaydi, matnda ulardan muayyan uslubiy maqsadda foydalanadi, qo'llayotgan antroponimlarini "gapirtira oladi". Nomlar yozuvchining goyaviy maqsadini yoritib berishga xizmat qiladi, turli ramziy-majoziy ma'nolarni ifodalaydi. Biz adibning "Otamdan qolgan dalalar" romanida antroponimlarni qo'llash usuli xakida fikr yuritish bilan chegaralanamiz.

Romandagi antroponimlarni shartli ravishda quyidagi guruxlarga ajratish mumkin:

1. Tarixiy ism-shariflar - Ibroximbek, Namoz Pirimqo'l ugli, Poltoraskiy, Skobelev, Qolesov, Sharof Rashidov, Brejnev, Yaxyoev, Usmonxo'jaev kabi.

---

<sup>1</sup> Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., Ўзбекистон, 1992. Б. 209.

<sup>2</sup> Шомаксудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1983. Б. 55.

2. Real - noekspressiv ism-shariflar - Jamoliddin, Baxtiyor Abduraximov, Mavlonov, Meliev, Ziyod va hoqazo.
3. Real - ekspressiv ismlar - Akrab kurboshi, Bolxin terimchi, Xursandoy, Norguloy, Dehqonqul.
4. Metonimik ma'no ifodalovchi nomlar - Ketmon, Oqqodsho, Qizil, Ideologiya, Adabiyot, Fizika, Kimyo, Jugrofiya, Oladuppi.
5. Sinekdoxa asosida ma'no tashuvchi nomlar - Jingalasoch, Baroqkosh.

Biz bu urinda lingvistik omillar bilan xosil qilingan nomlar xususida batafsilroq tuxtalib utishni joiz deb topdik.

Dehqonqul - asardagi asosiy kaxramon. "Dehqon" so'zining ma'nosi "asosiy kasbi ekin ekishdan, dehqonchilikdan iborat kishi" <sup>1</sup>

Lekin yozuvchi Dehqon so'ziga o'zbek ismlariga qo'shib aytiladigan "-boy", "-jon", "-bek" kabi shakl xosil qiluvchi qo'shimchalardan birini emas, aynan "qo'l" morfemasini ko'shadi. Bunda "qo'l" so'zining ko'chma ma'nodagi "kimsaga kur-kurona xizmat qiluvchi, buysunuvchi, itoatguy, malay, xizmatqor" semalari yuzaga burtib chiqadi. Natijada shurolar mustamlakasi davrining mute, itoatguy, hoqisor kurboni bo'lgan Dehqonqul obrazi kitobxon ko'z ungida yakqol namoyon bo'ladi. Uning brigadasidagi oqtuproq yerning xususiyatini bila turib ekin ekish vaktini o'zi mustaqil belgilay olmasligi (87-88-bet), xotiniga bir kiyim atlas olib berolmay mustarlik tortgani (95-98- bet), rais darvozasi yonidagi tushkun holati (118-bet), hayot tashvishlaridan quyib ado bo'lgan xotini o'ziga ut quyib, azob-ukubatda jon berayotganda, ayol bechorani "esidan okkan" deb xukm chiqarganlarida ham qo'lidan xech narsa kelmasligi (180-181-bet) va boshqa ko'plab holatlar uning Dehqonqul ismiga munosib ravishda tasvirlanadi.

Metonimiya - grekcha so'z bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Metonimiya so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Bunda ma'no tashki yoqi ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa yoqi hodisaga ko'chiriladi.

"Otamdan qolgan dalalar" asarida shaxsning nomini uning kasb-qori bilan atash usuli qo'llangan. Muallimlar bola tilidan ular soboq beradigan fan nomlari bilan ataladi: Fizika, Kimyo, Adabiyot, Jugrofiya...

M: "Ovozlarni tanib olaman - birovi Jugrofiya bo'ladi, birovi Adabiyot bo'ladi". (VI, 1, 56-bet)

Yana bir turkum antroponimlarda esa ma'no yo'qi ko'chaytirilib, shaxsning ijtimoiy to'zumdagi mavkei o'rnini ifodalovchi so'zlar metonimiya yuli bilan ko'chirilgan - Oqqodsho, Qizil, Ideologiya, Ketmon va hoqazo.

---

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд, Рус тили, Москва, 1981 йил. Б. 222.

M: " - E - e, Ketmon, ketmon. Senga ketmon bo'lsa bo'ldi. Sen ham odamday bo'lib ketmondan bosh ko'tarsang ekan, dunyodan xabardor bo'lsang". (VI, 1, 7-bet)

Bunda birgina "ketmon" so'ziga juda katta majoziy ma'no yuklangan. Bu o'zbek dehqonining, ertayu kech ketmondan bosh ko'tarmay, butun umri dalada utgan mute, sodik mehnatkash xalqimizning tipik vaqili emasmi? Hozir ham oramizda tulib-toshib yotibdi, bunday "Ketmon"lar. Bu ma'noni ifodalash uchun ketmon so'zi metonimik tarzda qo'llangan. So'z tarkibida metonimiya uchun asos bo'lgan sema "qishloq xo'jaligida ko'p ishlatiluvchi ish kuroli"dir. Boshqa semalar - "tigi borligi", "metalldan yasalganligi", "tik sopliligi" va hoqazolar bu urinda xiralashgan, natijada inson "qishloq xo'jaligida ko'p ishlatiluvchi ish kuroli"ga teng bo'lib qolgan."Shundan buyon raxmatlik maktab direktorimizni kizini Ideologiya degich bo'ldim", - deydi asar kaxramoni Dehqonqul. Buning ham tarixi qiziq tarzda bayon etiladi. Maktab direktori o'z egizak kizlariga kompartiyaga sodiklik ramzi sifatida Roza (Roza Lyuksemburg) va Klara (Klara Setkina) ismlarini kuyadi.

Keyinchalik bu egizaklar ulgayib, xaqiqatan ham kommunistik mafkuraga sodik targibotchilarga aylanadi. "Tanglayi kommunistik mafkura bilan ko'tarilgan" Roza Xodjaevnaning (Xo'jaevna emas! - ta'kid bizniki) ismi sharifini aytishga kiynalgan Dehqonqul uni Ideologiya deb atay boshlaydi.

Quyidagi parchaga e'tibor bering. "Oqpodsho arava minib o'tadi. Oqpodsho soz chalib o'tadi. Oqpodsho ashula aytib o'tadi.

Oqpodsho xushtak chalib o'tadi".

(VI, 1, 7-bet)

Shu zaylda, "Oqpodsho" Jamoliddin ketmon dalalarigacha oyoq bosib keladi, butun Turkiston ulkalarini egallab oladi. Adib chorizm yugurdaklarini, ularning qora qilmishlarini birgina "Oqpodsho" so'ziga yuklaydi:

"Fargonani Oqpodsho bosadi".

"Isfarada-da Oqpodsho bo'ladi". (VI, 1, 8-bet)

Unda metonimiya orqali xosil qilingan ko'chim katta ijtimoiy mazmun tashishga xizmat qiladi. Avvalo, ushbu metonimiyaning xosil bo'lishi o'sha davr o'zbek ongining darajasi bilan bog'liqligini ta'kidlab utish lozim. Oqpodsho so'zining hozirgi o'zbek ongi nuqtai nazaridan semem tahlili bu metonimiya asosini ko'rshtmaydi. Tog'ay Murod o'sha davr kayfiyatini va o'sha davrdagi o'zbek mentaliteti darajasini xassoslik bilan xis qilib ushbu tasviriy vosita asoslarini topa olgan. Ko'rinadiki, o'sha davr til tashuvchisi ongi Oqpodsho so'zining hozirgi davrda mumkin bo'lmagan metonimik qo'llanishini yaratadi.

Antroponimlarni qo'llashda yozuvchi sinekdoxa usulidan ham foydalangan. Ma'lumki, sinekdoxada butun orqali qismni, qism orqali butunni, birlik orqali ko'plikni ifodalash ko'zda tutiladi.

Sinekdoxa ham tasviriy vosita sifatida badiiy tilda keng qo'llaniladigan usullardan biridir.

M: Bir kungiz muylovli,  
Baroq soch mal'un,  
Jigar rang bir mundir  
Istagi uchun,  
Naxotki, yerimiz  
Chappa aylanib,  
Naxotki, daryolar  
Oqar teskari. (G'.G'ulom)

Bu misralardagi "qo'ngiz mo'ylovli", "baroqsoch mal'un" biriqlarida "Gitler", "fashizm" tushunchalari yotadi. Xuddi shuningdek, "Otamdan qolgan dalalar" romanidagi "baroqkosh katta" leksemasini o'qigan kitobxonning ongosti sezimlarida Shurolar davrida podsholardek, xonlardek davr so'rgan xukumat raxbarlari obrazlari gavdalanadi.

M: "Baroqkosh suray berdi - men ayta berdim". (VI, 1, 225 - bet)

"Jingalasoch Xursandoy bilan Norguloyga "Paxta ishki" degich qo'shiq mashk ettirdi".( VI, 1, 208-bet)

Tog'ay Murod ijodida antroponimlarning ekspressiv salmogi, aftidan, uning xalq ogzaki ijodi bilan jonli xalq tili elementlariga aloxida e'tibori bilan belgilanadi. Uning ijodi o'zbek tili lingvopoetikasi va psiholingvistikasi uchun goyat qiziqarli manba bo'la oladi.

## 2-BOB. BADIY TASVIR VOSITALARINING LINGVISTIK ASOSLARI

### 2.1.Ifodaviy-tasviriy vositalar.

O'zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, bugungi kun davr adabiyoti rivojiga o'z xissasini ko'shayotgan ijodqorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda yozuvchi Tog'ay Murod asarlariga murojaat qildik. Yozuvchi voqelikni badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan va yorqin ifodalash uchun tilning fonetik, leksik va grammatik imkoniyatlaridan o'ziga xos foydalanadi. Bu yozuvchining individual uslubi so'zlashuv nutqi

imkoniyatlaridan foydalanishi va umumxalq tilining chegaralangan katamlari boyligini o'zida aks ettirishi bilan harakterlanadi. Badiiy tasvir vositalariga ijtimoiy ta'sir usuli mavkeini berishga erishish ijodqordan katta mahorat talab etadi.

Yozuvchi o'zi bayon qilayotgan fikrni o'quvchiga ixcham, anik, ta'sirchan va tushunarli qilib etkazib berish uchun o'zundan-o'zoq ta'rif va tavsiflar o'rniga uxshatish, kinoya, sifatlash, majoz kabi vositalardan foydalangan holda lunda va anik qilib tushuntirishga harakat qiladi. "Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviriy vositalar deyiladi."<sup>1</sup>

Maxsus ifoda-tasviriy vositalar troplar va figuralar deb ikkiga bo'linadi. T. Boboevda Poetik ko'chimlar (troplar) va Poetik sintaksis (sintaktik-stilistik figuralar) negadir faqat she'riy nutq doirasida o'rganilgan.<sup>2</sup> Bunday yondashuv, bizningcha, o'zini oqlamaydi. Chunki bu urinda olim "poetik ko'chim" va "poetik sintaksis" atamalarini faqat tor ma'noda, ya'ni she'riy ko'chimlar va she'riy sintaksis sifatida qo'llagan ko'rinadi. Vaholanki, ishimizning birinchi bobida ko'rib utganimizdek, "poetika" atamasi bugungi kunda, umuman "badiiy asar poetikasi", yoqi "ijodqor poetikasi" tushunchalari doirasida muayyan asar yoqi muallifning badiiy nutqni bezash vositalaridan foydalanish mahoratini ko'zda to'tadi.

Tog'ay Murod asarlari asosida ularning ayrimlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

## 2.2.1. Tog'ay Murod asarlari nutqida metaforaning o'rnini.

Adib metafora, metonimiya, sinekdoxa, uxshatish, ramz, kinoya va boshqa tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Yozuvchi asarlarida keng qo'llangan uslubiy vositalardan biri metaforadir. Badiiy tildagi obrazlilikni yuzaga chiqarishda, voqea-hodisalarning anik, ishonarli va yorqin tasvirlanishida metaforaning o'rnini beqiyosdir.

Metaforada so'z nominativ ma'no ifodalash bilan birga badiiy ifoda vositasi sifatida konnotativ ma'no ham ifodalashi bilan tadqiqotchilarni doimo o'ziga jalb qilib keladi. "Nutqqa obrazlilik, ekspressiv buyoq berish niyatida narsa va hodisalar urtasidagi uxshashlikka asoslanib, so'z yoqi iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir."<sup>3</sup>

Metafora asosida mohiyatan ikki xil hodisa nazarda tutiladi:

---

<sup>1</sup> Қўнғуров Р. ва б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т., Ўқитувчи, 1992. Б. 97.

<sup>2</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т., Ўзбекистон, 2002.

<sup>3</sup> Қўнғуров Р. ва б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т., Ўқитувчи, 1992. Б. 97.

1. Nomsiz narsani nomlash.
2. Nomli narsaga kayta nom berish. (ikkinchi nom)

Birinchi holat zaruriyatdan kelib chiqishi anik. Ikkinchi holatda esa mavjud bo'lgan nom so'zlovchi nuqtai nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta'minlay olmay qolganda yuzaga chiqadi<sup>1</sup>.

Ikkilamchi nomlashda so'zlovchining sub'ektiv munosabati ham ifodalanadi, natijada metaforiq ko'chma ma'noga ega bo'layotgan so'z yoqi biriqlmalar konnotativ ma'noning xosil bo'lishiga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda mazmuniy jihatdan metaforalarning 3 turi, ya'ni odatiy metaforalar, jonlantirish va sinestetik metaforalar farklanadi.<sup>2</sup> Ushbu tasnifni ma'qo'llagan holda, "jonlantirish" emas, "jonli metaforalar"<sup>3</sup> atamasini kiritishni urinli deb hisoblaymiz. Chunki bu urinda "jonlantirish"ni jonli metafora asosidagi badiiy tasvir vositasi deb talkin qilish mumkin.

1.Odatiy metaforalarda bir so'zning ma'nosi ikkinchisiga ko'chirilganda, o'sha predmet, voqea-hodisalar uchun umumiy bo'lgan belgi, xususiyatlar tushunchada saklanib qoladi. Xalq tilida keng tarkalgan tulki, buri, eshak, kuyon, it kabi an'anaviy metaforalardan yozuvchilar o'z asarlarida turli konnotativ ma'nolarni ifodalash uchun ko'p foydalanadilar.

Ma'lumki, sistem-struktur tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaralganda, har kaday so'zning ma'nosi bir nechta kichik ma'no(sema)lardan tashkil topadi.

Masalan, daraxt:

1) predmet; 2) usimlik; 3) yerda usuvchi; 4) tanali; 5) ildizli; 6) shoxli; 7) bargli<sup>4</sup>.

Metaforada ana shu ma'nolardan biri yetakchi qilib olinib, uni boshqa predmet yoqi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bunda o'sha predmetlar uchun umumiy belgi tushunchada saklanib qoladi.<sup>5</sup>

Aynan shu holatni nazarda tutgan holda, metafora uchun oddiy so'zni ifodalovchi semantik uchburchakni emas, balki undan yuqoriroq pogonadagi G.L.Permyakov sxemasini ma'qo'l deb hisoblaymiz. (Bu xakda ishning 2-bobiga qarang.)

M:Seni kim aytadi - O'zbekiston dalalari lochini, deb! (VI,1, 231-b.)

Agar odatdagi semantik uchburchakni metaforaga nisbatan qo'llasak, so'zning asl ma'nosidagi tasavvur va yangi ma'noning u bilan bog'liqligi ifodalanmay qoladi.

---



<sup>1</sup> Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номзоди...дисс. автореф. Т., 2000. Б. 10.

<sup>2</sup> Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. Т., Маънавият, 2002. Б. 73.

<sup>3</sup> Аликулов Т. Маъно чегаралаш масаласига доир FF Тил ва адабиёт таълими. 1997, №2. Б. 39-42.

<sup>4</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. Т., Ўқитувчи, 1995. Б. 58.

<sup>5</sup> Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Т., Ўқитувчи, 1992. Б. 101.



S signifiqat

A (eksponent) - lochin,

V (denotat) - odam (Dehqonqul),

S (signifiqat) - lochin so'zining asl ma'nosi (yirtkich, ammo ov uchun foydali qo'sh),

D (tushuncha) - gayratli, shijoatli, faqat mehnatga yaroqli odam.

Bu urinda tinglovchining lochin xakidagi tasavvuri va uning odamga nisbatan qo'llanishidan paydo bo'lgan tushuncha V - S - D nuqtalarda umumlashadi.

Yana bir misol. "Sukmoqda bir qizil kiyim ko'rindi. Boshida doqa rumoli bo'ldi. Qo'lida savatcha bo'ldi. Odimlar vazmin-vazmin bo'ldi.

Bu, asl qo'shiqning

o'zi bo'ldi! Asl qo'shiq to'rganda muhammas qo'shiqqa yul bo'lsin! Asl qo'shiqqa taraf yuk!

Qo'shiq beixtiyor adirdan enib boshladi...

Qo'shiqlar yuzma-yuz bo'lib nimani gapirishdilar?

Qo'shiqlar yiglab-yiglab mana bunday gapirishdilar:

- Umringizni olmayin dedim, bovasi, yolgiz ugilsiz...

- Shu gapingga noma'qo'lning nonini yebsan, momosi. Senga kelgan dardga o'zim kundalang, momosi". (VI, 2, 340-bet)

Qo'shiq:

1) mavxum narsa, 2) ijod maxsuli, 3) she'riy matn va musika birligi, 4) yoqimli oxang.

Yuqoridagi matnda qo'shiq so'zining birinchi, ikkinchi va uchinchi semalari xiralashib, "yoqimli" semasi ko'chaytiriladi va metaforiq ko'chim yuzaga keladi. Bunda qo'shiqning yoqimlilik bilan ikki shaxs (Koplon bilan Oymomo)ning bir-biriga yoqimlilik mo'tanosiblashadi.

2. Jonli metaforada "Insonga va jonli mavjudotga xos belgilar tabiat hodisalariga, narsalarga va tushunchalarga ko'chiriladi."<sup>1</sup>

Tog'ay Murod ijodida jonli metaforalar anchagina ko'zatiladi. Ular personajlarning ruxiy holati, tabiat tasviri, kaxramonlarning voqelikka munosabatini obrazli ifodalashda muhim uslubiy vosita vazifasini o'tagan.

M: "Dalalarim entikdi.

Dalalarim uygondi. Dalalarim ko'z ochdi.

Dalalarim meni imladi, dalam meni chorladi". (VI, 1, 78-bet)

Insonga xos bo'lgan "entikdi", "uygondi", "ko'z ochdi", "imladi", "chorladi" kabi harakatni bildiruvchi so'zlar jonsiz narsaga - dalaga nisbatan qo'llanib, ko'chli emosionallikni yuzaga chiqaradi. Chunki butun umri dalada utgan, dusti ham, kadrdoni ham, boyligi ham o'z dalasi bo'lgan Dehqonqul uchun dalaning odamdek entikishi, uygonishi, imlashi ishonarli hol.

3. Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idroq etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idroq etiladigan narsa-tushunchaga uxshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi.<sup>2</sup>

Tog'ay Murod asarlarida metaforaning ana shu turi asosida o'ziga xos muallif metaforalari paydo bo'lgan va ular asar tilining jozibador bo'lishiga, o'quvchi e'tiborini jalb qilishga munosib xissa qo'shgan.

M: "Kattalardan lalmi-lalmi duklar eshitdim". (VI, 1, 81-bet)

"Men kattalardan nordon-nordon gaplar eshitdim". (VI, 1, 131-bet)

"Norasida go'zani nimasi bo'ladi? Ignaday tanasi bo'ladi!"

(VI, 1, 94-bet)

"Botir firka kekxa ko'zlariga ishonmadi". (VI, 3, 83-bet)

"Daxo nonkur-nonkur she'rlar yozdi". (VI, 2, 390-bet)

Misollardagi "lalmi-lalmi duklar", "nordon-nordon gaplar", "norasida go'za", "kekxa ko'zlar", "nonkur-nonkur she'rlar" biriqlaridagi so'zlar bir-biriga mantikan boglanmaydi, lekin "lalmi"dagi "kuruk", "nordon"dagi "yoqimsiz", "norasida"dagi "nimjon", "kekxa"dagi "xorigan", "charchagan", "nonkur"dagi "noroz" semalari sinestetik metafora asosida bu so'zlarni biriqla

---

<sup>1</sup> Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Т., 2003. Б. 139.

<sup>2</sup> Ёўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. Т., Маънавият, 2002. Б. 76.

tarzida berishga imkon yaratadi. Biriqmalardagi ayni gayriodatiylik "kitobxon dikkatini darhol o'ziga jalb etadi, o'ziga xos oxor tutilmaganlik, odatiy emaslik tasvirdagi obrazlilik ustida kitobxonni bir on tuxtashga majbur qiladi. Sintaktik ko'rilishning ana shunday "notugriligi" bir xil tugrilik, silliklikka qaraganda badiiy asar matnida lisoniy-estetik ahamiyat kasb etadi"<sup>1</sup>.

### 2.2.2.Ramzning uslubiy xususiyatlari.

Bugungi davr o'zbek adabiyotida ramz tasviriy vositasining vazifasi va moxiyati ancha kengayib, mazmunan boyishi ko'zatiladi.

"Simvol (ramz) obrazli ifodaning bir ko'rinishi bo'lib, badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z yoqi so'zlar biriqlasidir..."<sup>2</sup>

"Otamdan qolgan dalalar" romanini A.Rasulov iborasi bilan "roman-ramz"<sup>3</sup> deb atash mumkin. Chunki bu roman boshdan-oyoq ramziy ma'no anglatishga xizmat qiluvchi asar bo'lib, uning majoziy obrazlarida xususiylik va umumiylik yaxlit tushunchaga aylanib ketadi. "Otamdan qolgan dalalar" nomining o'ziyoq Dehqonqulning otasidangina emas, balki o'zbek xalqining otasidan qolgan dalalar, yanada tularoq anglasak, "Ona Vatanim", "tugilib usgan yerim" ma'nosida o'zbek uglonining xitobi bo'lib yangraydi.

Adib chorizm yugurdaklarini, ularning qora qilmishlarini birgina "Oqpodsho" so'ziga yuklaydi.

M: "Fargonani Oqpodsho bosadi.

Oqpodsho shahar oralaydi". (VI, 1, 13-bet)

Shu zaylda Oqpodsho Jamoliddin ketmon dalalarigacha oyoq bosib keladi, butun Turkiston ulkalarini egallab oladi.

Shurolar xukumati esa Qizil obrazi orqali beriladi.

M: "Qizillar qo'logi kirkta bo'ladi!.. Qizillar onamizni oldiga solib ketadi". (VI, 1, 28-bet)

Demak, Oqpodsho va Qizil so'zlari ramziy ma'no kasb etib, ijtimoiy mazmun tashishga xizmat qilgan.

### 2.2.3.Kinoyadan foydalanish mahorati.

---

<sup>1</sup> Йўлдошев М. Ўша жойда.

<sup>2</sup> Хотамов Н., Саримсаков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т., Ўқитувчи, 1979. Б. 279.

<sup>3</sup> Расулов А.

Tog'ay Murod asarlarida kinoya usulidan ham keng foydalanilgan. "Kinoya inqorning bir ko'rinishi bo'lib, tasvir ob'ekti ustidan kesatish, kochiriq yuli bilan yashirin qo'lish, piching... Kinoya bo'lib kelgan so'z yoxud so'z biriqlasining asl ma'nosiga emas, ko'chma - yashirin ma'nosiga e'tibor beriladi." <sup>1</sup>

Jumladan, Tog'ay Murod ham "Otamdan qolgan dalalar" romanida Oq va Qizil imperiya mustamlakasi davrini tasvirlar ekan, yolg'onlar ustiga ko'rilgan to'zumni fosh etishda utkir kinoya usulidan foydalanadi.

Asarda voqelik bevosita Dehqonqul tilidan bayon qilinadi, lekin unga muallifning ovozi qo'shilib ketadi. Kaxramon "men"i ruxiyati murakkab ijtimoiy jarayonda ochilib boradi, uning tashki voqelikka bo'lgan munosabati oydinlashadi. Dehqonqulning dil iztiroblari, mo'zta va ayanchli hayoti o'quvchi ko'z ungida suratday namoyon bo'lib, "ong osti sezimlarini harakatga keltiradi". <sup>2</sup> Bunday urinlarda "illyuziya ko'rinishlari"<sup>3</sup> yuzaga keladi va kinoya makromatnlarning yetakchi pafosiga aylanadi. Ayniksa, asarda tanikli yozuvchilarning paxta dalalariga tashrifi, kinochilarning tasvirga olish epizodlarida illyuziya burtib ko'rinadi. Kinoga olish uchun terimchi kizlarga birovlarining atlas ko'ylagi kiydiriladi, Dehqonqulning xovlisiga Norboy chavandozning otini, Chori magazin mudirning "Volga"sini olib kelib kuyadilar va x.k.

Bo'larning bari xo'jakursinga bo'lib, jamiyatdagi mavjud voqelik bilan xaybarakallachilik siyosati bir-biriga sira mos kelmas, ommaviy axborot vositalari esa "sovet dehqoni baxtiyor, sovet kishilar tuk-farovon, sovet xotin-kizlari ozod va shod-xurram" deya tinimsiz jar solardi.

M: " - Xursandoy, shudringning yaltirashini qara, xuddi yomgir yoqqanday-a, - dedi Norguloy.

- Bahor, misoli sulim bahor!

Xursandoy shunday deb, Norguloyga bir nima uzatdi.

- Dugonajon, manavi atirdan sepib oling. Chivin chakmaydi.

- Voy, bu nima?

- Franso'z atiri.

- Raxmat. Dugonajon, raxmat, dalaga franso'z atiriyam bo'laveradi". (VI, 1, 167 - bet)

Ko'rinadiki, bu urindagi kinoya voqelikni anglab to'rgan o'quvchida achchiq qo'lg'u uygotadi.

---

<sup>1</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т., Ўзбекистон, 2002. Б. 350.

<sup>2</sup> Улугов А. Ўзгараётган адабиёт манзаралари FF Шарқ юлдузи, 1998, №6.

<sup>3</sup> Солижонов Й. XX асрнинг 80-90- йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол. фанлари доктори илмий даражаси учун дисс. автореферати. Т., 2002. Б. 10.

### 2.3. Sintaktik figuralarning lisoniy xususiyatlari.

Badiiy adabiyotda so'zning ma'nosi va ifodaviyligini ko'chaytirish maqsadida qilingan shakliy-uslubiy o'zgarishlar uslubiy -sintaktik figuralar deb yuritiladi.

Ma'lumki, har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham bo'la olishi mumkin.

Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar bo'lib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta'sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo'ladi.

Tog'ay Murod ijodida ko'chim(trop)lar bilan birgalikda uslubiy-sintaktik figuralarning ham emosional-ekspressiv ma'nolarni shakllantirishga qaratilgan stilistik imkoniyatlaridan keng foydalanilgan.

Badiiy asarda fonetik, leksik va grammatik birliklarning turli maqsadlarda takrorlanishi badiiy takror sifatida muayyan uslubiy vazifa bajaradi. Takror ma'noni ko'chaytiruvchi, badiiy asarning ekspressivligi, tasviriyligini belgilovchi omillardan biridir. Odatda, takrorlar ko'proq she'riy matnda ko'zatiladi. Tog'ay Murod asarlarida she'riy unsurlarning mavjudligi xususida tuxtalib utgan edik. Adib, xususan, badiiy takrorlarning o'ziga xos individual shakllaridan keng foydalangan.<sup>1</sup>

Tog'ay Murod asarlaridagi takrorlarni lingvistik xususiyatiga kura quyidagicha tasniflash mumkin:

a) fonetik takror (alliterasiya):

"Surxon saratoni saratonni saratoni bo'ldi". (IV, 1, 86-b.)

"Kars-kars karsak bo'ladi...Chalp-chalp chapak bo'ladi". (IV, 1, 60-b.)

"Qizillar qo'logi kirkta bo'ladi". (IV, 1, 28-b.).

b) gap bo'laklari takrori:

"Kaldirgochlarimiz boshimiz o'zra uchdi. Charx-charx uchdi.

Kaldirgochlarimiz inlarida kator bo'lib utirdi.

Kaldirgochlarimiz bizga muralab-muralab utirdi.

Kaldirgochlarimiz bizga mult-mult utirdi".( IV, 1, 83-b.)

"Siz tarixiy binoda yotibsiz, Dehqonqul Akraovich, tarixiy binoda!" (IV, 1, 229-b.).

b) gap takrori:

---

<sup>1</sup> Тоғай Мурод ижодидаги такрорий сўзларнинг морфологик табиати ҳақида ишнинг 1-бобиға қаранг.

"Ay, bir ayolimiz bor-da, ay, bir ayolimiz bor-da!" (IV, 1, 95-b.)

g) kirish so'z takrori:

"Shu...shu, karz berib tursangiz degandim, rais bova, pul tushganda o'zardim. (IV, 1, 97-b.)

d) undovlar takrori:

"Bali-e, Tarlonboy-e, bali-e! (IV, 3, 239-b.)

e) undalmalar takrori:

"E-e, Dehqonqul aka, Dehqonqul aka. Menda pul nima qiladi?" (IV, 1, 97-b.)

"E, aka-e, aka-e! Afandi ekansiz-ku!" (IV, 3, 181-b.)

"Kani, yo, bismillo! - deya qo'shqo'llab ko'rishdim. - Omonginamisiz, Klarabaycha? Vaktiginangiz xushmi, Klarabaycha?

Uynab-qo'libgina yuribsizmi, Klarabaycha?" (IV, 1, 84-b.)

PARALLELIZMda strukturasi bir xil bo'lgan sintaktik birliklar ketma-ket kelib, ikki va undan ortik uxshash hodisalar bir-biriga qiyoslanadi.

Parallelizm sintaktik simmetriyani xosil qilib, ifodalilikni ko'chaytiradi.

"She'rlarini chalkancha yotib o'qidi, tik turib o'qidi, utirib o'qidi". (IV, 3, 366-b.)

"Oshxona taraf qo'loq to'tadi. Darvoza taraf qo'loq to'tadi. Molxona taraf qo'loq to'tadi.

Ovoz kaerdan kelayapti - bilolmaydi". (IV, 1, 25-b.)

POLISINDETON. Odatda, polisindeton hodisasida uslubiy maqsadda boglovchilarning takroriy qo'llanishi nazarda tutiladi. Tog'ay Murod bu holatdan bir oz chekinib, polisindetonni yuklamalarga nisbatan qo'llaydi va personaj nutqining o'ziga xos individualligini yuzaga chiqaradi.

"Uyginasida, bola-bakraginasi oldiginasida yotsa bo'lmaydimi-a?" (IV, 1, 31-b.)

### 3-BOB. DIALEKTIZM TURLARINING POETIK TASVIRDAGI O'RNI

Badiiy asar tilining boy va jozibador bo'lishida dialektizmlarning o'rni va roli muhimdir. "Badiiy asar tilining ifodaliligi, kaxramonlar nutqining individuallashtirilganligi ko'p jihatdan urinli va me'yorida qo'llangan sheva unsurlariga bog'liq"<sup>1</sup>

"Yozuvchilar o'z asarlarida hayotning realistik tasvirini chizish, maxalliy qoloritni berish, personajlar nutqini individuallashtirishda yoqi biron tushunchaning shevadagi atamasi kitobxonga ahamiyatli bo'lgan holatning maxalliy belgisini bildirsagina dialektal so'zlardan foydalanishi mumkin".<sup>2</sup>

Dialektizmlarning fonetik, leksik va grammatik ko'rinishlari mavjud bo'lsa, Tog'ay Murod o'z asarlarida ularning hammasidan ham keng va unumli foydalanilgan. Zero, yozuvchi asarlarining eng birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir. "Dehqonqul nutqi Surxon voxasi laxjasi libosini kiyib, o'quvchi qo'log'iga ajabtovur eshitiladi"<sup>3</sup>. Darxaqiqat, Tog'ay Murod asarlarida, asosan, Surxondaryo shevasiga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar obrazlilikni ta'minlab, jozibadorlik va uslubiy rang-baranglikni vujudga keltirgan.

#### 3.1.Fonetik dialektizmlar.

Quyida fonetik dialektal elementlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganishga harakat qildik.

Ma'lumki, "fonetik dialektizmlarda emosional buyoq ko'chli bo'lmaydi. Bundan tashkari shevaga xos bo'lgan tovushlar sistemasini faqat traskripsiya orqaligina anik berish mumkin".<sup>4</sup> Ammo shunga qaramasdan shevadagi fonetik o'zgachalikdan badiiy matnda estetik maqsad bilan foydalaniladi, chunki bunday o'zgachalik, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi, qolaversa, xududiy mansublikni ta'kidlaydi, kaxramon nutqining individualligini ta'minlaydi.

---

<sup>1</sup> Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. Т., Маънавият, 2002. Б. 29.

<sup>2</sup> Шомақсудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. Т., Ўқитувчи, 1983. Б. 57.

<sup>3</sup> Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси. Филол. фанл. док. диссертацияси автореферати, Тошкент, 2002.

<sup>4</sup> Файзуллаев Б. FF Ўзбек тили ва адабиёти. 1975, №3.

Fonetik dialektizmlarning xosil bo'lishi fonetik jarayonlar - tovush o'zgarishi, orttirilishi, tushishi, ikkilanishi hodisalari bilan yuzaga chiqadi.

A. Undosh tovushlarda quyidagi o'zgarishlar ko'zatiladi:

1. So'z boshidagi y undoshi j ga almashadi: yigit-jigit. "Tevarak qishloqlardan jigitlar kelib qo'shilyapti". (VI, 1, 30-b.)

2. So'z urtasidagi v undoshi b ga almashadi: kovoq-koboq, tovoq- toboq, chivin-chibin. "Otamiz koboq uyub ichkarilaydi". (VI, 1, 27-b.)

3. So'z urtasidagi n undoshi m ga almashadi: sunbo'la-sumbo'la. "Avji saratonda boshlab, sumbo'la tukkanida kazib bo'lib edik".(VI, 3, 120-b.)

4. So'z oxiridagi k undoshi jaranglilashadi: achchiq-achchig. "Achchig zax go'zaga el bo'lmaydi". (VI, 1, 113-b.)

5. So'z oxiridagi r tovushi l tovushiga almashadi: zarur-zaril. Bunda dissimilyasiya hodisasi ko'zatiladi, ya'ni ikki uxshash tovushdan biri nouxshash tovushga aylanadi. "Yuk, ishim zaril". (VI, 2, 26-b.)

6. Undosh tovushlarning cho'zilishi ularning qo'sh undosh holiga kelishi shaklida bo'ladi: maza-mazza. "Ana endi, kuyoshda mazza qilib toblanib yotamiz". (VI, 1, 9-b.) Bunday shakl ma'noni ko'chaytirib, ekspressiv buyoqdorlikni yuzaga chiqargan.

7. So'z urtasida v tovushi orttiriladi: surat-suvrat. "Doira suvratida aylantiraman". (VI, 1, 65-b.)

8. So'z boshidagi s tovushi ch ga almashadi: sochildi-chochildi, yogin-sochin - yogin-chochin. "Shonalar o'z-o'zidan to'kilib-chochildi". (VI, 1, 147-b.)

9. So'z urtasidagi j tovushi y ga almashadi: majlis-maylis. "Maylis bo'ladi!" - deydi. (VI, 1, 46-b.)

10. So'z oxirida y tovushi orttiriladi: obru-obro'y. "Obro'y bor-da, misol uchun, obro'y bor, xa!" (VI, 2, 303-b.) Ushbu pragmatik momentda shu so'z orqali personajning ruxiy holati, uning bir oz maktanchoqlikka moyilligi anik ko'rinadi.

11. So'z oxirida tovush tushishi (anoqopa): Toshkent-Toshkan, Chimkent-Chimkan. "Toshkanniyam olibdimi-a?" (VI, 1, 8-b.)

B. Unli tovushlar o'zgarishi ham ko'zatiladi:

1. "o"lashish: aka-oqa. "Ko'z bormi, oqa?" - dedi melisa. (VI, 1, 161-b.) Bunda voqelik Toshkentga ko'chganligini ta'kidlash ma'nosi yuzaga keladi.

2. sh jarangsiz undoshidan keyin i unlisi orttiriladi: pishdi-pishidi. "Loy pishidi". (VI, 1, 133-b.)

3. ye unlisi a ga almashadi: o'zbek-o'zbak. "O'zbakni konikib mexmon kutgani - podsho bo'lgani! Bir podsho bo'ling, Dehqonqul aka!" (VI, 1, 203-b.) Bu urinda ham tovush almashishi

hodisasiga yozuvchi juda katta pragmatik ma'no yuklaydi. Birgina "o'zbek" so'zining "o'zbek" tarzida talaffuz qilinishi Dehqonqulning o'ta sodda, mute ekanligi, raisning unga nisbatan mensimay, masharao'mo'z munosabati kabi tagma'noga ishora qilinadi. "Bir podsho bo'ling, Dehqonqul aka!" jumlasidagi kinoya esa bu ma'noni yanada burttirib ko'rstadi.

4. So'z boshida tovush orttirilishi (proteza): rus-uris. "Katta ketsam-ketmasam, qishlogimizga uris zotini yonastirmayman". (VI, 1, 31-b.)

Umuman olganda, Tog'ay Murod o'z asarlarida fonetik dialektizmlar, so'zlashuv uslubiga xos fonetik hodisalardan keng va urinli foydalanganki, bo'larsiz yozuvchining roman hamda kissalari jozibasi va xalqchilligini tasavvur qilish mumkin emas.

### 3.2. Morfologik dialektizmlar.

Tog'ay Murod asarlarida shevaga xos morfologik xususiyatlar ham ko'plab uchraydi. Biz yuqorida yozuvchi asarlarida, xususan, "Otamdan qolgan dalalar" romanida uslubiy talab bilan kelishiq, shaxs-son va xatto egalik qo'shimchalarining o'zgarishi yoqi tashlab ketilishi xakida fikr yuritgan edik.

Bunday holatni quyidagi misollar orqali yakqol ko'rishimiz mumkin:

a) kelishiq qo'shimchalarining tushirib qoldirilishi:

- ning. "Bobomiz(ning) xovlisi Fargonada bo'ladi". (VI, 1, 5-bet)

- ni. "Bolish(ni) ko'choqlaydi". (VI, 1, 28-bet)

- ga. "Suv(ga) egilmish tollar majnun-majnun sollanadi".( VI, 1, 5-bet); "Ship(ga) tiqilib ux tortadi". (VI, 1, 27-bet)

- ka. "Okkaltak-qorakaltak el-da, o'zlarini eshiq(ka) uradi". (VI, 1, 12-bet)

- da. "Bugdoyzor adogi(da) daryocha oqadi". (VI, 1, 38-bet)

b) kelishiq qo'shimchasidagi fonetik o'zgarish: tushum kelishigining -di shaklida berilishi:

"Otamiz esnashdi o'zicha tushundi". (VI, 2, 318-bet)

"Chibindi quying, shamol esib utganday bo'ladi!" (VI, 2, 309-bet)

v) qaratkich kelishigi o'rnida tushum kelishigining qo'llanishi (Bu hol nafaqat dialektik, balki umuman so'zlashuv uslubiga xos xususiyat hisoblanadi):

"Jamoliddinni ketmoni dalasiday keladi!" (VI, 1, 5-bet)

"Ikkita-da gapmi, Xayitkalni jarida ikkita qizilni bugizlab ketibdi". (VI, 1, 29-bet)

g) junalish kelishigi o'rnida tushum kelishigining qo'llanilishi:

"Ko'plari meni yetib keldi, ulokka o'zaldi". (VI, 1, 119-bet)

d) egalik qo'shimchalarining tushirib qoldirilishi. Bunday hol kelishiq qo'shimchalariga nisbatan kam qo'llangan.

"Yolgiz ugil Ibodin, soqov ugil Ibodin katik sotib ona(sini) boqadi". (VI, 1, 11-bet)

"Chori magazin mudir(i) "Volga" mashinasini olib keldi". (VI,1,203-b.)

e) murojaatda qo'llanuvchi ulim, bobosi, momosi kabi so'zlar tarkibidagi -m, -im, -si egalik qo'shimchalari so'zlovchining xususiy munosabatini ifodalab, xissiy ta'sirchanlikni oshirgan.

"Kel, aynam, kel, manavi yerga utir, - dedi Xojar kur". (VI, 2, 256-bet)

"Alla, bubagim, alla-yo, totli bubagim alla-yo..." (VI, 2, 267-bet)

yo) -miz I shaxs ko'plikdagi egalik affiksining I shaxs birlik affiksi o'rnida qo'llanishi:

"Hamsoya-qo'llarnikidan onamiz keldi". (VI, 1, 200-bet)

"Momomiz gap bilan andarmon bo'lib bilmaydi". (VI, 1, 10-bet)

"Bobomiz bush piyolani zarda bilan tuntarib tashlaydi". (VI, 1, 11-b.)

Ushbu jumladagi onamiz, momomiz, bobomiz shaklidagi so'zlar matnda tushuncha anglatish bilan birga qo'shimcha emosional-ekspressiv ma'nolarni ham ifodalagan. Ko'plikni bildiruvchi egalik qo'shimchalari doim kandaydir umumiylik, mavxumlikni ifodalaydi. O'ziga ishonchi bo'lmagan, shaxs sifatida o'zligini mavxum tushunchalarga boy berib kuygan Dehqonqul nutqidagi bunday so'zlar kaxramonning "men"i inkirozga yuz tutganini yanada anikroq ifodalashga xizmat qiladi.

j) -boy shakl yasovchi affiksi varvarizm, ya'ni chetdan kirgan o'zlashmagan so'zlarga qo'shilib, emosional-ekspressiv buyoqdorlik xosil qilgan.

"Afgonistonda nima qilib yuribsizlar, "Sadist"boy?" (VI, 1, 236-bet)

"Brejnev bovamiz yuborib edi, deysiz-da, "Soqol"boy?" (VI, 1, 236-bet)

Ushbu urinda "Sadist", "Soqol" so'zlari afgonchi yigitlarga ataylab quyilgan yashirin nomlar. Ularni jargonlar guruxiga kiritish mumkin. Bu urinda o'zbek tiliga o'zlashmagan ruscha so'zlar bilan o'zbekcha morfema biriqib, emosional-ekspressivlik xosil qilgan va Dehqonqulning shaxsiy (yoqi tipik) xususiyatlarini burttirib ko'rstgan. Negaki, uning uchun hamma zuravon xurmatga loyiq. Tog'ay Murod asarlarida so'z turkumlariga oid morfologik dialektizmlar anchagina ko'zatilganligi sababli har bir mustaqil so'z turkumini aloxida olib qaraymiz.

1. Ot - so'z turkumida. Otlarning to'zilisiga kura sodda, qo'shma, juft ot shaklidagi dialektizmlar qo'llangan.

a) sodda otlar: buyinsasi (ogaynisi), gubalak (kapalak), bel (belkurak), ungir (tun etagi), bo'la (holavachcha), yoron (dust) kabi.

b) qo'shma otlar assalomalaykum, takasoqol (yovvoyi ut nomlari), kisirpoya (bugdoyi urib olingan joy), moljallob (dallol), beldasta (belkurak sopi), ketmondasta (ketmon sopi) kabi.

v) juft otlar: xesh-tabor, ulpi-tomir, bola-bakra, temir-taka, hamsoya-qo'llar, kelim-ketim, poshiqasta-zaifa kabi.

2. Sifat - soʻz turkumida. a) sodda sifatlar: shilta (xul), oqimtil (oqimtir), kayvoni (koʻpni koʻrgan), mimit (kichkina, mitti), taypoq (katta, yapaloq) kabi tub sifatlar, chekkagir (chetdagi), beqillik (beqilik), sertamiz (bama'ni), beboqina (begunox), dupposday (barvasta, yugongina), ertachi (ertaki) kabi yasama sifatlar;

b) qoʻshma sifatlar: govkalla, chiqkabel, xushsuvrat;

v) juft sifatlar: dali-guli, alvir-shalvir, uvolchi-savobchi, etli-sulli;

g) takroriy sifatlar: noparmon-noparmon, gunogun-gunogun, chirimanda-chirimanda, shiltadan-shilta, lalmi-lalmi.

Ayrim soʻzlar adabiy tilda bir ma'noda, shevada esa boshqa ma'noda qoʻllanishi mumkin. Bunday soʻzlar ma'no koʻchishi orqali yuzaga keladi. Ana shunday holat sifatlarda koʻzatiladi. M: "Bova, Ermat polvon bilan meni olishtiring, u kalin oshnamni yikitdi". (VI, 2, 15-bet)

Bu jumlada kalin soʻzi kadrdon, yaqin ma'nosida ishlatilgan. Odatda, jonli soʻzlashuv tilida dust, urtoq, ogayni, dugonaga nisbatan "kalin" soʻzi ishlatiladi.

Togʻay Murod "kalin" soʻzini yana boshqa bir ma'noda ham ishlatadi: "Ideologiya soʻzni kalin-kalin aytdi". (VI, 1, 179-bet)

Jumlada "kalin" soʻzining koʻpol, uxshovsiz degan ma'nolari yuzaga chiqadi.

M: "Serjant Orziqoʻlov chiyduxoba kamzulni yuzlik kiyim qilib oldi". (VI, 2, 420-bet)

Ushbu jumladagi "yuzlik" soʻzi obruli, oxorli, uyatli joylarga kiyiladigan degan ma'nolarni ifodalaydi.

"Mayda" soʻzi ham bir necha xil ma'nolarda qoʻllanganki, ularni ushbu qismda izoxlashimizning sababi, bu ma'nolar oʻziga xos dialektizmlar tarzida yuzaga chiqadi.

M: "Uloq bu gal maydagina bir turiqda ketdi". (VI, 2, 119-bet)

"Ayolimiz boshidan maydagina oyna oldi, tumtoqkina kalam oldi". (VI, 1, 186-bet)

"Ukariq buyida maydaroq kalladay bir kesak boʻldi". (VI, 1, 145-bet)

Bu jumlalardagi "mayda" soʻzi "kichkina", "koʻrimsiz" kabi ma'nolarni ifodalaydi.

"Bolalarimni mayda enasi ketgan boʻlsa, mana katta enasi bor!" (VI, 1, 186-bet)

Bu gapda esa "mayda" soʻzi "kichiq" (men katta, u kichiq kabi) ma'nosida qoʻllangan.

3. Son - soʻz turkumida. Sonlarga xos dialektizmlar deyarli koʻzatilmaydi.

"Samolyotlar ikki sidra dori sepib oʻtadi". (VI, 1, 65-bet)

Ushbu jumlada "marta" soʻzi oʻrnida "sidra" soʻzi qoʻllangan.

4.Olmosh - soʻz turkumida. 4.1. Olmoshga xos dialektizmlar, asosan, fonetik hodisalar orqali xosil boʻlgan:

a) shu olmoshi oxirida "l" tovushi orttirilgan: "Alhol, senga-da shul xukm joriy etiladi". (VI, 1, 23-bet)

b) bu olmoshiga morfologik vositalar qo'shilganda, "b" tovushi "m"ga aylanadi: buncha - muncha, bunday - munday, bunda - munda kabi. "Munday qarasalar, balchiqda bir murda yotgan emish". (VI, 1, 91-bet)

v) mana bu, ana bu qo'shma olmoshlaridagi "b" undoshi "v"ga, ikkinchi "a" unlisi "o"ga almashadi: "Polvon bova, manovi Ermat polvonni bir sinab ko'ring".

(VI, 2, 13-bet) "Manavi siz-da? - deya barmogim bilan no'qidim". (VI, 1, 228-bet) "Anavi yiglayapti deyman!" (VI, 1, 104-bet)

4.2. a) "nima" olmoshi "narsa" so'zi o'rnida qo'llangan: "Bari nima to'qin-sochin". (VI, 1, 87-bet) "Erda tuproqdan boshqa nima topolmaydi". (VI, 1, 21-bet)

b) jamlovchi olmoshlardan "bari" shakli ko'p qo'llangan: "Bari ayol shunday deydi". (VI, 1, 32-bet) "Bari nima to'qin-sochin". (VI, 1, 87-bet)

5. Ravish - so'z turkumida. a) ana shu yokka ravishi "ashiyokka" shaklida uchraydi: "Sizdan oldin ashiyokka bir balo utdi, - deydi bobomiz". (VI, 1, 7-bet)

Bu urinda Surxon dalasida mexnat qilayotgan Dehqonqulning bobosi asli Fargonadan ekanligiga ishora qilinadi. Chunki "Otamdan qolgan dalalar" romani "Men fargonachi Jamoliddin ketmon nabirasi bo'laman" degan jumla bilan boshlanadi. Xikoyachi - personaj Dehqonqul tilidan bobosining uris boskinchilaridan kochib (poq dalalarni izlab) Surxon diyoriga borib qolganligi xikoya qilinadi. "Ana shu yokka" ravishining "ashiyokka" tarzida qo'llanishi esa Dehqonqul xikoyasining isboti sifatida uslubiy vazifa bajarib, vodiy shevasidagi o'ziga xos jihatlarining Jamoliddin ketmon nutqida saklanib qolganligini ko'rstishga xizmat qiladi.

b) "ortiqcha" ravishi "Ot kishnagan oqshom" kissasida "oshiqcha" shaklida uchraydi: "Shu boisdan Tarlonni oshiqcha zarbalamadim". (VI, 2, 130-bet)

v) maxalliy aholining so'z yasash usuliga asoslangan okkazional ravishlar ham uchraydi: "Azonshomda bir dona shona tugdi". (VI,

1, 145-bet) "Odam toltushda tamaki cheksa nima bo'ladi?" (VI, 1, 194-bet) "Kuyov boshqoq oyda o'qishiga kaytdi". (VI, 2, 367-bet)

g) ravishlarning ma'no jihatdan har kaysi turiga oid dialektizmlar ko'zlatiladi:

1) holat ravishi: salki, yelvagay, sidirga, tayin, azzancha, ulay-bo'lay, ila-bila, sel-sebor, paydar-pay, illi-billa, elan-qaran, bosh-adogiga, ilkis-ilkis, xadaxa-xadaxa, itirkin-itirkin;

2) payt ravishi: tagin, boyagina, boyanagi, tonglay, bemavrid, ertamatan, elburutdan, eldan burun, saharlayin, xalizamat;

3) urin ravishi: oftobiyor, oftobro'ya, eshiq-ora, tevarak-girdi.

4) daraja-mikdor ravishi: xiyol, picha, durjiroq, kamchil, duyum-duyum, gartdak-gartdak;

5) sabab ravishi: beyozikdan-beyozik;

6) maqsad ravishi: ilkisdan.

6. Fe'l - so'z turkumida. Tog'ay Murod asarlarida morfologik dialektizmlar ichida fe'lga xos xususiyatlar aloxida ahamiyatga ega. Bunday dialektizmlar maxalliy qoloritni yaratish bilan birga personajlar nutqining o'ziga xosligini ko'rstishga ham xizmat qiladi. Fe'lga oid dialektizmlarning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:

a) sof dialektizmlar: bid-bid etmoq (bidirlamoq), mazallatlamok (izza qilmoq), qorlamok (nazarga ilmoq), ser solmoq (nazar solmoq), chiriq bermok (kichkirmok), ko'chay olmoq (eplay olmoq, ko'tara olmoq), buysira bo'lmoq (safga turmoq), joriya etmoq (e'lon qilmoq), oyoq ilmoq (tuxtamoq), kuganlamok (boylamoq), bel qilmoq (kundalang qilmoq, biror joyga kuymoq), iyarmoq (ergashmoq), vovaylo etmoq (dod-voy qilib bakirmok), shoyi etmoq (xursandchiligini nishonlamok), garkob bo'lmoq (gark bo'lmoq), turkalmoq (ko'zgalmoq), nopayid bo'lmoq (nobud bo'lmoq), sob bo'lmoq (tugamoq), hamanqara bo'lmoq (ovora bo'lmoq), ish ko'qimoq (ish juda ko'paymoq) kabilar.

Masalan, "Men ovoz quyib chiriq berdim". (VI, 1, 174-bet) Yozuvchi mana shunday sodda, jun jumla orqali oddiy qishloq ayoli Bolxin momoning nutqini soddalashtirishga, xaqiqiy real tasvirni yuzaga chiqarishga erishgan.

Yoqi: "Ziyod mumsik-mumsik qo'limsinadi". (VI, 1, 69-bet) Xali hayotga tuyib ulgurmagan, yoshgina, norasida Ziyod dori sepilgan paxta dalasida uxlab qoladi va ulimi oldidan munglig, chakaloqday beozor bo'lib qoladi. Shu holatda uning qo'lishga ham majoli yuk, shuning uchun nochor holda qo'limsinadi. Shu jumladagi "qo'limsinadi" fe'lga boglangan belgi bildiruvchi mumsik so'ziga ham e'tibor qaratish urinlidir.

b) kumakchi fe'lli so'z qo'shilmasi tarkibidagi -(y) affiksi bilan yasalgan ravishdosh o'rniga -b(ib) affiksi qo'llanadi:

"Tevaragiga odam tuplab boshladi". (VI, 3, 95-bet)

"Gusht maydalab boshladim". (VI, 1, 137-bet)

"Kiz baxmal urab boshladi". (VI, 1, 127-bet);

v) fe'lga xos dialektizmlarning ayrimlari fonetik usul bilan xosil bo'lgan: kepti (kelibdi), jiladi (siljiydi), bupti (bo'libdi), bup turib (bo'lib turib), kuyberdi (quyib berdi), kep bo'ladimi (kelib bo'ladimi), deyatib edilar (deyayotib edilar), kaytib (kanday qilib), shuytib (shunday qilib) kabi.

g) so'zlardagi ma'no ko'chishi orqali: Masalan, "Go'zarda katik ketadi" (VI, 1, 14-bet) jumlasidagi "ketadi" so'zi "yaxshi sotiladi"

ma'nosida, "Sagal utdi - chakalogimiz tindi" (VI, 1, 105-bet) gapida esa "tindi" so'zi "tinchidi", "yiglashdan tuxtadi" ma'nolarini ifodalagan.

Yana bir misol: "Daxo shurvani mo'zdayligicha yedi".

Edi:

1) harakat, 2) iste'mol, 3) jonli narsalarga xos, 4) kuruk, kuyuk narsalarning iste'moli, 5) tugatmoq, yuqotmoq baholi.

Yuqoridagi jumlada yedi so'zi tanovul qildi, ichdi ma'nosini ifodalagan. Adabiy tilda suyak taomga nisbatan "ichmoq" fe'li ishlatiladi, "emoq" fe'li esa kuyuk taomga nisbatan qo'llanadi. Ushbu urindagi shurvaga nisbatan "edi" shaklining qo'llanishi dialektik o'ziga xoslik hisoblanadi.

Bu hodisani tojik tilining ta'sirida paydo bo'lgan deb taxmin qilish mumkin, chunki tojik tilida "xuridan" fe'li ham yemoq, ham ichmoq ma'nolarida ishlatiladi.

### 3.3. Leksik dialektizmlar.

Bunday dialektizmlar, odatda, badiiy tilda ko'proq uchraydi. Shuning uchun ham muayyan ijodqor asarlari tiliga bagishlangan ishlarda asosan, leksik dialektizmlarga tuxtalib utiladi, holos. Tog'ay Murod asarlarida ham shevaga xos so'zlar uning o'ziga xos uslubini belgilashda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qilgan. Muallif ularni o'z kaxramonlari nutqiga shunday singdirib yuborganki, busiz adib asarlari jozibasi va xalqchilligini tasavvur qilish kiyin.

M.Yuldoshev shevaga xos so'zlarning uch turini: sof leksik, etnografik va semantik dialektizmlarni farklaydi. Tog'ay Murod leksik dialektizmlarning har uchala turidan ham urinli va mahorat bilan foydalangan. Sof dialektizmlarning adabiy tilda ma'nodoshi mavjud bo'ladi. Bunday dialektizmlar tasvirda maxalliy ruxni yorqin tasavvur qilishga xizmat qiladi. Masalan, belkars (belbog), hamsoya (qo'shni), buyinsasi (tengko'ri, tengdoshi), xesh (karindosh), bolish (yostik), chinachiq (jimjiloq) kabi.

M: "Sovchilar oxorli belkars urab ketdi". (VI, 2, 224-bet) "Folchi nimayam derdi, Holdon hamsoya". (VI, 1, 45-bet) "Avtobusda bolalikdan billa usmish Sadir buyinsasi bo'ldi". (VI, 2, 421-bet) "Yana tagin xesh emish. Xa, oshingni yeyin, senday xeshimning!.." (VI, 2, 296-bet)

Kaxramon nutqida qo'llangan leksik dialektizmlar maxalliy qoloritni yaratishga xizmat qilishi bilan birga uning nutqiga

o'ziga xoslik ham bagishlaydi. Keng iste'moldagi faol so'zlarga nisbatan dialektizmlardagi "begonalik", "yangilik" belgilari ularning obrazlilikini ta'minlaydi. Obrazlilik esa ekspressivlik, jozibadorlik va uslubiy rang-baranglikni vujudga keltiradi.

Yuqoridagilarni quyidagicha xulosalash mumkin:

1. Tog'ay Murod asarlarida dialektizmlarning fonetik, leksik, grammatik ko'rinishlaridan keng va unumli foydalanilgan. Zero, yozuvchi asarlarining eng birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir.
2. Fonetik dialektizmlarning xosil bo'lishi fonetik jarayonlar - tovush o'zgarishi, orttirilishi, tushiish, ikkilanishi hodisalari bilan yuzaga chiqadi.
3. Morfologik dialektizmlar uslubiy talab bilan kelishiq, shaxs-son, va egalik qo'shimchalarining tashlab ketilishi, biri o'rnida boshqasining qo'llanilishi, so'z turkumlarining har birida shevaga xos o'zgachaliklarning ko'zatilishi bilan izoxlanadi.
4. Leksik dialektizmlarning sof leksik, etnografiq va semantik turlari ko'zatiladi.

#### UMUMIY XULOSALAR

1. Badiiy asar tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida o'rganish muayyan asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchilarning so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, demakki, "xalqning ruxi" bo'lgan tilga ijtimoiy ta'sirlarni tahlil qilish imkonini beradi.
2. Shu kunga kadar o'zbek filologiyasida uslubiyat va uslubshunoslik, uslub tushunchalari o'zining anik va lunda ta'rif-tavsifiga ega emas. Bu masalaga turlicha yondashuvlar va ayrim chalkashliklar davom etib kelmoqda. Ba'zi urinlarda "uslub", "usul" va "metod" tushunchalari aralashtirib yuboriladi.

Bu masalaga ham imkon darajasida oydinlik kiritildi.

3. O'zbek filologiyasidagi badiiy adabiyot tili muammolari buyicha olib borilgan tadqiqotlar ichida "ma'lum bir ijodqorning tildan foydalanish mahoratiga doir ishlar"ni aloxida gurux sifatida ajratish maqsadga muvofiqdir.
4. Ijodqorning individual uslubini o'rganish murakkab jarayon bo'lib, u ham adabiy, ham lingvistik tahlil imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi va shu tarzda shoir yoqi yozuvchi ijodiy tafakko'ri o'ziga xos jihatlarining kay tarzda yuzaga chiqishini tekshiradi.
5. Dastlab "poeziya" va "poetika" tushunchalari aralash holda qo'llanganini e'tiborga olsak, uning faqat she'riy asarlarga nisbatan qo'llanishi, bizningcha, yetarli emas. Hozirgi zamon adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan olib qaralganda, bizningcha, tor ma'noda, badiiy asar to'zilishi, uning turli qismlari orasidagi munosabat, badiiy nutq stilistikasi, ya'ni badiiy nutq va uning harakteri, turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati masalalarini o'rganuvchi soxaga nisbatan poetika atamasi qo'llanadi. "Poetika" atamasiga sinonim sifatida "badiiyat" so'zini ham qo'llash mumkin.
6. Badiiy asar nutqi va adib uslubini shakllantiruvchi lisoniy vositalar quyidagicha tasniflandi:
  - a) fonetik vositalar;

b) leksik vositalar;

v) grammatik vositalar:

- morfologik vositalar;

- sintaktik vositalar.

"Poetik morfemika" grammatik vositalarning tarkibiy qismi hisoblangan morfologik vositalar doirasida tekshirildi. "Poetik semantika" esa leksik vositalar hamda ko'chimlar tarkibida o'rganildi.

7. Qator fonetik hodisalar - tovushlarning cho'zib talaffo'z qilinishi, ikkilantirilishi, tovush tushishi, orttirilishi va almashishi orqali ma'noni ko'chaytirish, ta'kid, ajablanish, xayajon, olkish, yalinish, erkalash kabi konnotativ ma'nolarni ifodalashda muhim stilistik vosita bo'la oladi.

8. So'z qo'llashdagi individuallik ijodqor uslubining o'ziga xosligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Tog'ay Murod ijodidagi o'ziga xos okkazonalizmlarning matn jozibadorligi, badiiy buyoqdorligi, xissiy ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni harakterlidir.

9. Antroponimlar muallif fikrini yuzaga chiqarishda muayyan uslubiy vazifani bajarishi mumkin. Xususan, Tog'ay Murod asarlaridagi antroponimlar o'z nominativ vazifasidan tashkari turli emosional-ekspressiv, ramziy-majoziy ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan. Aksariyat holda muallif ismlarning lisoniy asoslariga tayanadi.

10. Tog'ay Murod fe'llning keng semantik-grammatik hamda uslubiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Jumladan, fe'llarning yasaliish xususiyati, shaxs-son va modallik kategoriyalaridan muhim uslubiy vosita sifatida foydalanib, o'zbek tilining morfologik imkoniyatlarini kengaytirgan.

11. Undalma va kirishlar singari undovlarning ham grammatik jihatdan tobelanishi ko'chsiz bo'lsa-da, semantik jihatdan boglanishi ko'chli ekanligi ko'zatildi. Shunga asoslanib, gap semantikasiga ta'sir etishi, gapda ma'lum bir grammatik-semantik vazifalarni bajarishini nazarda tutib, kirish va undalmalar qatorida undovlarni ham gapning "uchinchi darajali bo'laklari" sirasiga kiritish mumkin. Tog'ay Murod asarlarida undov, kirish va undalmalar o'ziga xos tarzda uslubiy buyoqdorlikni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

12. Xalq donishmandligining maxsuli bo'lgan maqol, matal, masal, idioma kabi paremlar ijtimoiy muxit ruxiyatini aks ettirish, badiiy asar goya va maqsadini, personajlar ichki dunyosini ochishda, nutqqa ta'sirchanlik va ifodalilik baxsh etishda muhim ekspressiv ahamiyatga ega. Tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaralganda, maqol, matal, masal, idioma tipidagi paremalarda mushtarak va farkli tomonlar ko'zatiladi. Paremalarning semantik xususiyatini o'rganish lingvopoetik tahlil uchun boy material bera oladi.

Bizningcha, Tog'ay Murod nutqida paremalarning quyidagi invariantlari variantlashgan:

I Invariant. X o'z xususiyatiga (harakatiga, belgisiga) egaligi bilan U ga ekvivalentdir.

Bo'laman degich el bir-birini botirim deydi,

Bo'lmayman degich el bir-birini etini yeydi" (VI, 1, 7-b.)

II Invariant. X dagi xususiyat U dagi xususiyat natijasidir. Bunda ikki holat ko'zatiladi:

a) natija yashirin:

"Otangni kurdim - axmadi forig,

Onangni kurdim - tovonni yoriq" (VI, 2, 359-b.) Ushbu matalda ochiq aytilmasa-da, "sen kim bo'larding" degan fikr bor;

b) natija ochiq:

"Otangga suyilgan kal uloq - senga-da bo'ladi shul uloq, bo'libdi-da?" (VI, 1, 113-b.) Ushbu paremaning mazmunidan "onangga, ajdodingga nima bo'lsa, senga ham shu" degan ma'no ochiq anglashilib turadi. III Invariant. X ning xususiyati U ni muayyan sifat o'zgarishlariga olib keladi:

"Xalq qo'llasa - bor bo'ladur,

Xalq qargasa - xor bo'ladur". (VI, 1, 19-b.)

13. Metaforada so'z nominativ ma'no ifodalash bilan birga badiiy ifoda vositasi sifatida konnotativ ma'no ham ifodalaydi.

Metaforaning semantik xususiyatini ochishda odatdagi uchburchak sxema emas, balki piramida shaklidagi sxemani qo'llagan ma'qol. Chunki bunday yondashuv so'zning asl ma'nosidagi tasavvur va yangi ma'noning u bilan bog'liqligini tula ochib berish imkonini yaratadi.

M: Seni kim aytadi - O'zbekiston dalalari lochini, deb! (VI,1,231-b.)

Agar odatdagi semantik uchburchakni metaforaga nisbatan qo'llasak, so'zning asl ma'nosidagi tasavvur va yangi ma'noning u bilan bog'liqligi ifodalanmay qoladi.

14. Tog'ay Murod asarlaridagi odatiy, jonli va sinestetik metaforalar personajlarning ruxiy holati, tabiat tasviri, kaxramonlarning voqelikka munosabatini obrazli ifodalash, voqea-hodisalarni ishonarli, yorqin tasvirlashda muhim ahamiyatga ega.

15. XX asr oxiri - XXI boshi nasrida ramziylik, tagma'noli bayon usuli yetakchi unsurlardan biriga aylandi. Bugungi davr o'zbek adabiyotida ramz tasviriy vositasining funksiyasi va mohiyati ancha kengayib, mazmunan boyishi ko'zatiladi. Tog'ay Murod asarlarida ramziy-majoziy talkin yetakchi uslubiy xususiyatlardan biriga aylangan.

16. Kinoya ifoda-tasviriy vositasi Tog'ay Murod ijodining pafosini belgilashda muhim omillardan biridir. Chunki adib ko'p holatlarda o'zining goyaviy maqsadini, muallif fikri, dunyoqarashi va nuqtai nazarini emosional-ekspressiv tarzda namoyon etishda kinoya usulidan keng foydalanadi.

17. Takror, polisindeton, parallelizm kabi uslubiy-sintaktik figuralarning ham emosional-ekspressiv ma'nolarni shakllantirishga qaratilgan stilistik imkoniyatlaridan keng foydalanilgan.

18. Tog'ay Murod asarlari tilining boy va jozibador bo'lishida dialektizmlarning o'rni va roli muhimdir. Yozuvchi asarlarining eng birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyatlaridan biri ham muallifning shevaga xos o'zgachaliklardan unumli foydalanganligidir. Xususan, Surxondaryo shevasiga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar obrazlilikni ta'minlab, jozibadorlilik va uslubiy rang-baranglilikni vujudga keltirgan:

- a) fonetik dialektizmlarning xosil bo'lishi fonetik jarayonlar - tovush o'zgarishi, orttirilishi, tushishi, ikkilanishi hodisalari bilan yuzaga chiqadi;
- b) morfologik dialektizmlar uslubiy talab bilan kelishiq, shaxs-son, va egalik qo'shimchalarining tashlab ketilishi, biri o'rnida boshqasining qo'llanilishi, so'z turkumlarining har birida shevaga xos o'zgachaliklarning ko'zatilishi bilan izoxlanadi;
- v) leksik dialektizmlarning sof leksik, etnografiq va semantik turlari kuzatiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. Т.: 2011.
- 2.Каримов И.А. Амир Темур ҳақида сўз.- Т.: Ўзбекистон,1996. - 62 б.
- 3.Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Т.: Ўзбекистон, 1997. - 326 б.

## IILMIY ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonov G., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. T., O'zbekiston, 2003. - 351 b.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., O'zbekiston, 2002. - 558 b.
3. Irisqo'lov M. Tilshunoslikka kirish. T., O'qituvchi, 1992, - 255 b.
4. Yuldoshev M. Chulpon so'zining sirlari. T.,Ma'naviyat, 2002.-80 b.
5. Muxiddinov M., S.Karimov. Gafur Gulomning poetik mahorati. Samarkand, SamDU, 2003. - 126 b.
6. Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksiologiyasi asoslari. T., O'qituvchi, 1995. - 127 b.
7. Sayfullaev A.R. Hozirgi o'zbek tilida gap bo'laklarining semantikasi va grammatikasi. T., Fan, 2000, - 128 b.
8. Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., O'zbekiston, 1992. - 399 b.
9. Umurqo'lov B. Poetik nutq leksikasi. T., Fan, 1990. - 110 b.
10. Fitrat A. Adabiyot qoidalari T., O'qituvchi, 1995. - 109 b.
11. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T., 2003. - 361 b.
12. Shanskiy N.M. Lingvisticheskiy analiz xudojestvennogo teksta. L., Prosveshenie, 1990. - 415 s.
13. Urinboev B., Kungurov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. T., O'qituvchi, 1990. - 215 b.
14. O'zbek tilining izohli lugati. II tomlik. M.: Rus tili, 1981. T.I. - 631 b. T.II. - 715 b.
15. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. T., O'qituvchi, 1992. - 160 b.
16. Quronov D. Chulpon nasri poetikasi. T., Shark, 2004. - 287 b.
17. Qung'urov R. va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiya t asoslari. O'qituvchi, T., O'qituvchi, 1992. - 160 b.

## BADIY ASARLAR

1. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. T., Shark, 1994. - 270 b.
2. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. T., Shark, 1994. - 461 b.

3. Tog'ay Murod. Bu dunyoda ulib bo'lmaydi. T., Shark, 2001. - 206 b.
4. Do'stmuhammad X. Bozor. T., Shark, 2000. - 191 b.
5. Murod Muhammad Do'st. Lolazor. T., Shark, 1998. - 559 b.
6. Cho'lpon. Kecha va kunduz. Asarlar: Uch jildlik. O.Sharafiddinov taxriri ostida. J.2. T., Adabiyot va san'at, 1994. - 472 b.
7. Qahhor A. Bemor. Asarlar: Besh jildlik. J.1. T., Gafur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.